



DO'STIM *Mening* KITOBIM



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UGHUN
HIKOYALAR

2

DO'STIM Mening KITOBIM

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN
HIKOYALAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
Respublika Ta'lim markazi nashrga tavsiya etgan



„Ensiklopediya“ nashriyoti

UO'K: 821.512.133-93

KBK: 83.8(50')

X 98

Tuzuvchi:
Sunnat XO'JAAHMEDOV

Ushbu kitobda maktabgacha ta'lim muassasalarining katta va kichik guruhlari hamda umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos, ularning pedagogik-psixologik ruhiyatlariga to'g'ri keladigan jazzi hikoyalar jamlangan.

Kitob tarbiyachilar, ota-onalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

Abduflla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/14-18

ISBN 978-9943-07-757-7

© S. Xo'jaahmedov

© „Ensiklopediya“ nashriyoti, 2022

SO‘ZBOSHI

Inson olamga kelibdiki, onani taniydi, uning hidi, qadam tashlashi, nafas olishini darhol sezib oladi. Ona bir daqiqa o‘zidan uzoqlashsa, xarxasha qiladi, ingalab yig‘laydi. Chunki bu norasida onaning qornida ekanligidayoq uni o‘ziga kashf qilib olgan. Shu onaning ko‘magida atrof-muhit bilan, o‘zini qurshab olgan olam bilan tanishadi. Onaning allasi, qo‘shig‘i, ertagi murg‘ak qalbida bir umrga muhrlanib qoladi.

Folklor va yozma adabiyot namunalari tinglab, o‘qib voyaga yetayotgan bolalarning o‘yinlari, sho‘xliklari, xayollari, qiziqishlari, gap-so‘zlari... Bular bolalarning ma’naviy dunyosini boyitadigan omillardan. Agar kattalar bu o‘ziga xos bolalar dunyosini tushunib, uni to‘g‘ri baholay olishsa, bolalarning kelajagi uchun katta ish qilgan bo‘ladilar.

Odamlarga, jonivorlarga, tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat, do‘stlik va o‘rtoqlik ilk tuyg‘ulari, yaxshilikka nisbatan uyg‘ongan dastlabki minnatdorchilik



hissi, har narsaga chanqoqlik bilan qiziqib qarash kabi ko'nikmalar bolalikdan shakllanib borishi tabiiy.

Hali o'qishni va yozishni bilmaydigan tarbiyalanuvchilar ushbu hikoyalarni avval tarbiyachi, ustozlari yoki ota-onalaridan tinglaydilar, o'qish va yozishni bilib olganlaridan so'ng esa o'zlari mustaqil o'qiy boshlaydilar va mana shu hikoyalar hamda ularning qahramonlari bilan o'sib-ulg'ayib voyaga yetadilar.

Bolalar yozuvchilarining mazkur kitobga jamlangan eng sara hikoyalari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona diyorimizga, mehnatga muhabbat, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini mustahkamlaydi, ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Umuman, kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi va mana shu yutuqlarimiz bilan faxrlanish tuyg'ularini o'stiradi.



YANGI O'RTOQ

Yangi uyimiz keng, yorug', uch xonadan iborat. Oldida balkoni bor. Eski divanimizni balkonga qo'yib oldim. Yozda dumalab, kitob o'qib yotaman. Dam olish kuni zerikib, divanni u yoq-bu yoqqa surayotgandim, buvim:

– Hoy, Murod, nega indamaysan? – deb qoldilar. – Eshikka chiq, birov chaqiryapti.

Chiqsam, sepkil yuzli, baqaloq bir bola. Menga qarab iljaydi. Basharasi tanish, tavba, qayerda ko'rganman? E, bo'ldi, bu anavi kelgan kunimiz ko'chimizni tashishib yuborgan qo'shnimizning o'g'li. Ismi Mirkomil edi, shekilli. To'g'rimizdagi uyda turishardi. Uni uyga taklif qilgandim.

– Yur, shaharni aylantirib kelaman, – dedi. Uyga kirib, buvimdan so'rab chiqdim.

Yangi shaharning yangi ko'chasidan Mirkomil bilan pildirab boryapman. Yo'l asfalt, tosh. Unda-munda qum-shag'al uyumlari. Ishchilar ko'chani tozalash bilan ovora. Shovqin-suron xuddi Toshkent-



dagidek. Qayerdadir motor gurillaydi. Olisda ko'tarma kranlarning havoga sanchilgan xartumi dam egilib, dam ko'kka pishqiradi. Uch-to'rt kishi yo'l yoqasiga ko'chat ekyapti. Men hamma narsaga mahliyo bo'lib boryapman, ammo Mirkomil tamom beparvo. Allaqachon hammasini ko'rib ulgurgan-da. Shuning uchun bo'lsa kerak, „Qalay, qoyilmi?“ – degandek dam-badam menga qaraydi. Ko'cha boshiga yetib qolganda:

– Qara, – dedi Mirkomil qo'limdan ushlab, – bizni chaqiryaptilarmi?

Sal narida uvoqqina bir chol iljayib turardi. Yonida kattakon qop. Men Mirkomilning tanishi shekilli, deb unga qaradim, u esa, bir nima demoqchi bo'lib, menga o'girilgan ham ediki, chol imladi.

Oldinma-keyin yugurib bordik. Ota bizga qarab:

– Bo'tam, shuni ko'tartirib yuboringlar, – dedi.

– Xo'p bo'ladi, qani, Mirkomil! – deb do'stinga ishora qildim.

Ichiga tosh solinganmi, bilmadim, rosa og'ir ekan. Inqillab-sinqillab ikki kishi arang qopni yerdan uzgan edik, Mirkomil qo'yib yubordi. Qop „tap“ etib yerga tushdi.



Chol yoniga o'girildi, savol nazari bilan qaradi:

– Ha, bo'tam?

– Qo'ying, ota, – dedi Mirkomil, – uyingiz olis emasmi?

– Yo'q, bo'tam, uzoq emas.

– Siz yo'l boshlang, – dedi Mirkomil yeng shima-rib, – o'zimiz olib borib beramiz.

Chol ikkilanib bir Mirkomilga, bir menga qaradi:

– Shundog'mi, mayli, bo'tam. Umringdan baraka top.

Chol yo'l boshladi. Mening ensam qotdi. „Bu chol buvangmi, tanish-bilishingmi, menga-ku baribir, yaxshi ko'ringing kelsa, belingni qiyshaytirib o'zing ko'tarib ketaver, mening nomimdan korchalonlik qilib nima qilasan“, – dedim ichimda. Mirkomil esa, qovog'idan qor yog'ilib:

– Ha, nimaga qarab turibsan, ushla! – dedi.

Ana xolos. Shuncha qilg'ilikni qilib qo'yib, zardasi nimasi-a? Voy surbet-ey! Shunaqa odamlarni ko'rsam-chi, tavba, gap topib berolmay dovdirab qolaman. Hozir ham shunday bo'ldim.

Indamay qopning bir tomonidan ko'tardim. Yo'lda Mirkomil qoqilib ketib tizzasini qirib oldi. Xuddi ala-mini mendan olmoqchi bo'lgandek, qopni bir silkigan



edi, oyog'imga tushib, boshmaldog'imni ezib yubordi. Xullas, bir-birimizni yeb qo'ygudek bo'lib, manzilga yetib keldig-u, cholning duosini ham eshitmay, qochib qoldik.

Mirkomil yo'lda to'xtab tizzasini ishqaladi.

– Qoyilman, – dedim boshmaldog'imni ushlab.

– Ha?!

– Boshmaldoqni yeding-a. Yaxshilikka yomonlik deb shuni aytadi-da.

Mirkomil birdan to'xtadi-da, qo'llarimni mahkam ushlab yuzimga tikildi:

– Nima? – dedi qoshlarini chimirib, – yana bitta qaytar, nima deding?

Men uning baqrayib turganini ko'rib, yana gap topib berolmay qoldim.

– E, bor-e, – dedim o'zimni tutolmay, – tanishning qopini ko'tarib gunohkor bo'ldimmi?

Mirkomil birdan bo'shshadi. Ko'zlarini g'alati pir-piratdi-da:

– O'ylab gapir, – dedi sekin, – nega mening tanishim bo'larkan. O'zingning tanishing-ku.

– Ana xolos, – deb yubordim, – seni imlab chaqirdi-ku!



– Hech-da. Nega meni bo'larkan. Seni!

Bunday aniqlab ko'rsak, chol uning ham, mening ham tanishim emas ekan. Mirkomil nima deyishini bilmay, tizzasini uqaladi. Men esa yana dovdirab:

– Cholni ko'rib buvam deb yurgan ekanmiz-da, – dedim.

Ancha yo'lgacha jim ketdik.

– Menga qara, – dedi bir mahal Mirkomil, – se-ning buvangmi, menikimi, baribir emasmi-a! Axir kimningdir buvasi, kimningdir tanishi-ku! Nima deding?

– Rost, – dedim yengil tortib. Negadir hozir yuragimda qaynab turgan g'azab birdan so'ndi-da, hatto boshmaldog'imning og'rig'ini ham sezmay qoldim. Mirkomilga ham o'zining aytgan fikri yoqib ketib iljaydi.

– Yur, – dedi, – endi shaharni aylanamiz. Ikka-lamiz bo'lgan voqeani unutib, xursand, xushchaq-chaq shaharni aylangani ketdik.



HOVLIDAGI MAYDONCHA

I

Ko'p qavatli uylar orasidagi kaftdekkina maydon. Uch bola quvlashmachoq o'ynayotir. Kichigi ayiqchaday lapanglab, qiyqirib-qiyqirib qochadi. Yoshi kattaroq ikki sherigi jo'rttaga tuyaga o'xshab lo'killaydi. Kichkina oynaday yarqirab ketgan sirpanchiqni, suvi qurib qolgan hovuzchani aylanib chopadi.


– Salim, oldini o'ra! – qichqiradi quvayotganlarning biri. – Hozir ushlaymiz!

Salim shartta orqasiga burilib, bolakayning oldini to'sib chiqa boshlaydi. Qurshovga tushayotganini sezgan kichkintoy hovuzchanning yaltiroq toshlar bilan suvalgan devoridan oshmoqchi bo'layotganida...

– Ushladik! Ushladik! Qoyil! – qiyqiradi Salim.

– Rosa choparkansan-ku! – hansirab turgan bolakayni maqtaydi Oybek. – Raketa-ya, raketa!

Maqtovdan og'zi qulog'iga yetgan kichkina yulqinadi, talab qo'yadi:





– Yana quvinglar, endi hecham ushlolmaysizlar.
– Bir pas dam olaylik, toza charchatding-ku!
– Vuy, shunaqayam charchaydimi odam? – bolakay bir yulqilanib „asir“likdan qutuladi-da, yana qochadi. – Ushlolmay-siz-lar, ushlolmay-siz-lar!

Salim hamrohiga mug'ambirona iljayadi:

– Oybek, quvmaymizmi?

– Bo'pti!

Qiyqiriq, ushla-ushla... Bolakay sira „tutqich“ bermaydi. „Qurshov“larni ustalik bilan „yorib“ o'tadi. Maydoncha qirg'og'idagi beton ariqchadan sakramoqchi bo'lganida... oyog'i toyib yiqilib tushadi. Yuzi ariqchanning qirrasiga borib uriladi. Jon achchig'ida yig'lab yuboradi. Burnidan qon oqadi. Rangi oqarib ketgan Oybek kela solib, uni turg'izadi, yupatmoqchi bo'lib, allanimalarni g'o'ldiraydi, burnidan oqayotgan qonni etagi bilan artadi. Ulardan ikki-uch qadam narida turgan Salim bo'lsa halloslab kelayotgan ayolni ko'rib qoladi. U:

– Oybek, qoch, ayasi kelyapti, o'ldiradi! – deydi-da, burila solib, ura qochadi.

Oybek hadeb o'zini yerga otmoqchi bo'layotgan bolakayni mahkam quchoqlaganicha, jovdirab, dovdirab turaveradi.



Darg'azab ayol hay-haylagancha kelib, Oybekning yuziga tarsakilab yuboradi. Uning quchog'idan bolani yulqib oladi.

– Chigitday go'dakni qoniga bo'yagan qo'llaring sinmaydimi?! O'ldirib qo'yayozding-ku, bolam bechorani! – shang'illaydi u.

Oybek katta-katta ochilgan ko'zlarini ayolga tikadi. Bir nima demoqchi bo'ladi, tomog'iga mushtdek suyak tiqilib qolganday ovozi chiqmaydi.

– He, ko'zing hakkaning ko'ziga o'xshamay ket! – battar tutoqadi ayol. – Odam gapiryaptimi, it huriryaptimi, demaydi-ya!

Ayol hamon bo'g'ilib yig'layotgan bolani yetaklab, shang'illay-shang'illay uylardan biriga kirib ketadi.

Hech narsaga tushunolmay, esankirab qolgan Oybek qotib qoladi. Yig'lagisi keladi...

– Senga aytdim-ku, nimaga qochmading? – deydi ayol ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan osmondan tushganday yonginasida paydo bo'lgan Salim. – Kallang bormi? Bu yalmog'iz kampir-ku!

Haliyam o'ziga kelolmayotgan Oybek birdaniga yig'lab yuboradi.

– O'zingdan ko'r, qochib ketganingda-yu... Bu-naqa paytda kallani ishlatish kerak-da, kallani!



Tahqirlangan Oybek bir Salimga, bir „yalmog‘iz kampir“ ketgan tomonga qaraydi-yu, alamiga chidolmay, uylari tomon yugurib ketadi.

– Yig‘lab bo‘lib tush, yana o‘ynaymiz! – orqasidan qichqiradi Salim. Keyin o‘ziga-o‘zi gapirayotganday qo‘shib qo‘yadi. – Vaqtida qochganida-ku... Mayli, bundan keyin pishiq bo‘ladi. – Salim o‘zining hushyorligidan mamnun bo‘lib iljayadi...

* * *

– Kim urdi? Nimaga yig‘lading?

– Haligi... Kamol yiqilib tushuvdi, turg‘azayotsam... ayasi kelib urdi.

– Qaysi Kamolning ayasi? Anavi yalmog‘izmi? He, odam bo‘lmay ketsin! Bolalarning o‘yiniga aralashadimi tuyaday xotin! Shoshmay tursin hali, ertaga bir ko‘ray uni. O‘zi, hamma ayb senginada. Yiqilsa yiqilib yotavermaydimi? Turg‘azib nima qilasan?

– Yomon yiqiluvdi-da, burniyam qonab ketdi. Salim ham bor edi. U qochib qoldi.

– Qonasa senga nima! Qochib qopti-ku Saliming! Ikkinchi birovning tarafini olma. Agar yana shunaqa qilganingni ko‘rsam...

Ona o‘g‘lini xo‘p koyidi.



O'sha maydoncha. Bolalar ikki tarafda turnaday tizilishib, „Oq terakmi, ko'k terak“ o'ynashmoqda.

– Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?

– Oybek kerak, Oybek kerak!

Oybek ikki-uch qadam tislani, kaftiga tufalaydi, qo'llarini bir-biriga ishqab, gavdasini xiyol oldinga egadi, betoqatlik bilan deysinayotgan „raqiblar“ tomon shiddat bilan yugurib ketadi. Saf chirt uziladi, Oybek tezligini to'xtatolmay cho'kkalab qoladi. Shilingan tizzasi tuz sepganday achishadi. U irg'ib turib, chapaklar ostida yengilgan raqibini yetaklab qaytadi.

Bir zumlik qiy-chuvdan so'ng yana quvnoq hayqiriq jaranglaydi:

– Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?

– Omon kaltacha kerak!

Safning eng chetidagi Omon kaltacha „baribir yutqizaman“ deganday bir nafas ikkilanib turib qoladi.

– Chopmaysanmi?! – qistashadi u tomondagilar.

– Joning boricha yugur, qo'rqma! – dalda berishadi bu tomondagilar.

Kaltacha safning bo'shroq joyini ko'zlayotgan bir paytda u tomondagi Turdi yonida Ahmadning qulog'iga pichirlaydi:



– Hozir kaltachani boplaymiz.

Kaltacha qo'lini osiltibroq turgan Turdini mo'ljallab yugurib kelaveradi. Ikki qadamcha qolganda ko'zini chirt yumib, ko'lmakka sakragan baqaday Turdining qo'liga o'zini otadi. Xuddi shu daqiqa Turdi sherigining qo'lini qo'yib yuboradi. Omon bor bo'yi bilan gup etib yerga tushadi. Bir dam qimirlolmay yotib qoladi. Joyidan turmoqchi bo'lganida, og'riqning zo'ridan ingrab yuboradi. Kaftiga, tizzasiga toshchalar kirib ketadi. Qiyqirib kulaverganidan Turdining ko'zidan yosh chiqib ketadi. O'yin buziladi. Bolalar Omonni qurshab oladilar. Kimdir suyab turg'izmoqchi bo'ladi. Peshanasi qashqa bo'lgan Omon „Vuy, oyog'im“lab joyidan turolmaydi. Hammasini ko'rib turgan Oybek Turdini jerkiydi:

– Nega unday qilding? Odammasakansan.

– Nima qipman?

– Qo'lingni qo'yib yubording-ku, o'yinbuzuqi! – Oybek xuddi urishqoq jo'jaxo'rozday Turdiga xezlanayotganida Salim tutib qoladi. Shivirlab dashnom beradi:

– Ahmoqmisan? Aralashib nima qilasan? Akasi haqiqiy bezori-ku! Aytsa, bir urib, majaqlab tashlaydi.



Shu payt boyadan beri Omonning tevaragida girdikapalak bo'layotgan Ahmad kelib Turdining orqasiga bir tepadi.

– Nimaga qo'limni qo'yib yubording?! Oyog'i sinay deyapti-ku! – Turdi o'zini o'nglaguncha, Ahmad uni yiqitib, ustiga minib oladi. Turdi dodlaydi. Bolalar ularni zo'rg'a ajratishadi. Turdi „Voy, aka, voy, aka“lab uyiga qarab chopadi. Zum o'tmay patila-patila sochlari peshanasiga tushgan, maykasi-ning ko'kragiga karatechilarning rasmi solingan bir bola – haqiqiy bezori hovliqib yetib keladi.

– Tomoshaning zo'ri endi bo'ladi! – hayajonli iljayadi Salim.

Bezori kela solib Ahmadning yoqasidan oladi. Chalib yiqitadi. Bosvolib do'pposlaydi. To'polonni tomosha qilayotgan Oybek xuddi musht o'zining boshiga tegayotganidek qunishib turadi. Ahmadga yordam bergisi keladi-yu, yuragi dov bermaydi.

– Hadeb birovning o'rtasiga tushganning jazosi shu, – deydi kaltaklangan Ahmad yig'lab ust-boshini qoqayotganida Salim Oybekka. Salimning hushyorligiga tan beradi.

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 2023/14-16



– Oyi-chi, bugun zo'r urush bo'ldi! Bir bezori Ahmadni rosa do'pposladi.

– Yana oraga tushdingmi?!

– E-e, jinnimanmi! Tekin tomosha ko'rdim mazza qilib.

– Barakalla, ana endi esing kiribdi. Aralashma unaqa janjal-to'polonlarga. O'zingdan boshqa bilan ishing bo'lmasin.

Ona o'g'lidan mamnun bo'ldi.



Gupillab laylak qor yog'moqda. O'sha maydoncha. Atrofdan minglab-minglab kapalaklar uchib yurganday. Yaltiroq muz bilan qoplangan hovuzchada bolalar yaxmalak uchishyapti. Ikki yuzi qizg'aldoqdek qip-qizarib ketgan Oybekning sevinchi ichiga sig'maydi. U chopqillab keladi-yu, muz yo'lakda qushday uchadi. Ana, u qorni g'arch-g'urch bosib yugurib kelyapti. Muz yo'lakka yetay deganda... Turdi oyog'ini chalib yuboradi. Oybek chir aylanib borib, zarb bilan hovuz devoriga uriladi. Quvonchdan teri-



sig'a sig'may ketgan Turdi qornini changallab kuladi. Alamiga chidolmagan Oybek qanday turgani, Turdining yoqasiga yopishgani va qanday qilib uning ostiga tushib qolganini anglolmay qoladi. Ustiga minib olgan Turdi pishillab uning yuz-ko'ziga uradi, tizzasi Oybekning qorniga qoziqday botadi. „Yerga qarab olmasam, hozir qornimni teshib yuboradi bu xom-semiz“. U kuchana-kuchana qorga ko'ksi bilan yotib olishga muvaffaq bo'ladi. G'alabadan ruhlangan Turdi uning boshiga qor ishqaydi, yoqasidan qor tiqadi. Oybek Turdining ostida ilonday to'lg'onadi, chiqib ketmoqchi bo'ladi. Uning ojizona urinishlaridan zavqlangan bolalar bir-birini turtkilab xaxolab kulishadi. „Bittasiyam ajrataylik demaydi-ya“, Oybekning yomon xo'rliqi keladi...

* * *

– Kim bilan yoqalashding? Paltoyingni kim yirtди deyapman senga?!

– Tur... Turdi urdi.

– Urди?! Nega urarkan? Hech kim bilan janjallashma demovmidim senga!



– O'zi boshladi. O'ynayotuvdik, chalib yiqitdi. Ishonmasangiz, bolalardan so'rang, barisi ko'rib turuvdi.

– Ko'rib turuvdi?! Ko'rib turib indamay tomosha qip o'tirdimi? Ajratib qo'yaylik degan gap chiqmadimi birontasidan?...

– Chiqmaydi, chiqmaydियam! Bola emas bular. Ikkitasini mushtlashtirib qo'yib, tomosha qilish bo'lsa ularga. Yo tavba! Yo tavbangdan! Nega buncha beoqibat bo'lib o'syapti-ya bu bolalar!

G'azabi qo'zigan ona hayrat va alam bilan yoqasini ushladi...





QALDIRG'OCH BILAN MUG'AMBIR ILON

Qaldirg'ochlar boshqa qushlarga qaraganda juda tez uchishi tufayli birinchi bo'lib bahorni boshlab kelar ekan. Ana shunday qaldirg'ochlardan biri ayvon shipiga uya qurish uchun loy olgani anhor bo'yiga qo'ngan ekan, qirg'oqdagi o't-o'lanlar orasidan bitta Ilon o'rmalab chiqib qolibdi. U:

– Assalomu alaykum, qora qosh, qora soch Qaldirg'och! Suv ichgani keldingizmi? – deb so'rabdi vishillab.


– Yo'q! Uya quryapman, loy olgani keldim, – debdi Qaldirg'och.

– Bir o'zingga qiyin ekan. Kel, do'st bo'lamiz. Qayerga uya qurayotganingni ko'rsatsang, yordamlashib yuboraman, – debdi Ilon yana vishillab.

– Yo'q, sen bilan do'st bo'la olmayman, chunki odatingni yaxshi bilaman, – debdi Qaldirg'och.

– Sen do'stlashishni istamasang, meni biron do'sting bilan tanishtirib qo'y. Yolg'iz o'zim zerikib qoldim, – deb yalinibdi Ilon.

Qaldirg'och „xo'p“ deb uchib ketibdi-da, ko'p o'tmay Tipratikanni boshlab kelibdi. Ilon Tipratikanni





ko'risi bilan bilanglab bir teshikka qochib kirib olibdi. Qaldirg'och teshik yoniga kelib:

– Hoy, Ilon, bu yoqqa chiq! Seni do'stim Tipratikan bilan tanishtirib qo'yaman! – deb chug'urlabdi.

Ilon teshikdan bosh chiqarmay:

– Sen juda sodda ekansan, hech mahal Ilon Tipratikan bilan do'st bo'lganini eshitganmisan?! – debdi-yu, qayta ko'rinmabdi.

KICHIK DEHQON

Erta ko'klamda Usmon aka bog'ni chopib, unga kungaboqar, bodring, qovun, tarvuz ekdi.

Bu ishda Usmon akaning kichik o'g'li Isroiljon ham unga ancha yordamlashdi, dadasiga tog'orachada ivitilgan urug'dan olib ozgina joyni chopdi-da, o'zicha ariq tortgan bo'ldi. Guldor paqirchasi bilan suv quydi. Dadasiga o'xshab, namlik yetgan yerni cho'p bilan chuqurlab, urug' tashladi-da, ustini namxush tuproq bilan to'ldirdi. Keyin sevinganicha onasiga borib:

– Men ham dadamdek dehqon bo'ldim, kungaboqar ekdim. Pishsa-chi, oyi, sizga ham beraman, – deb qo'ydi.



Oradan kunlar o'tib dadasi ekan urug'lar yerdan nish urib chiqa boshladi. Eng avval sichqon qulog'idek ikki ko'k barg chiqazdi.

Isroiljon ekan joyda esa, negadir hech narsa ko'rinmas edi. Isroiljon, urug' turganmikan deb, yerni kavlab ko'rdi. Qarasa, urug'lari turibdi-yu, unishidan darak yo'q. U borib dadasidan:

– Nega men ekan kungaboqar chiqmayapti? – deb so'radi.

Usmon aka Isroiljonni yetaklab bog'ga olib chiqdi-da:

– Qani, dehqon, qilgan ishingni ko'rsat-chi, qayerga ekuvding? – deb so'rabdi.

– Mana bu yerga.

Usmon aka qarasa, bittasi ham unib chiqmagan. U ham hayron bo'ldi.

– Urug'ni qayerdan oluvding?

Shunda Isroiljonning esiga cho'ntagi tushdi. Cho'ntagida qolgan uch-to'rt dona pistani olib, dadasiga ko'rsatdi. Buni ko'rgan Usmon aka xaxolab kulib yubordi.

– Ey, o'g'lim, qovurilgan urug' ko'kararmidi? – deganida Isroiljonning ko'zlari chaqnab ketdi.

– „Endi eksam adashmayman“, – deb qo'ydi u o'zicha...



KO'YLAKNI KIR QILMAYMAN

Xolasi Malohat opa Gulnozni juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun ko'pincha uyiga ham olib ketadi. Gulnozning o'zi juda aqlli qiz. Xolasinikiga borganda sira jim o'tirmaydi. Uylarni yig'ishtirishga, hovlini su-pirib-sidirishga yordamlashadi. Bir kuni Malohat opa Gulnozni o'zi ishlayotgan fabrikaga olib bordi. Bu yerda juda ko'p ayollar ishlashar ekan.

– Ular nima qilishyapti? – deb so'radi Gulnoz xolasidan.

– Ko'ylak tikishyapti, – dedi Malohat opa.

– Kattalarning ko'ylagini tikishyaptimi? – yana sa-vol berdi Gulnoz.

– Yo'q, sendaqa bolalarning ko'ylagini, – tushun-tirdi xolasi va uni tikuvchilar yoniga boshlab bordi. Gulnoz qo'li gul chevarlarga salom berdi-da, bir chekkada ularning ishini kuzatib turdi.

Qarasa, tikuvchilarning biri ko'ylakning bo'yini tayyorlab beryapti, ikkinchisi yoqasini tikyapti. Uchin-chisi yengini tayyorlayapti. Yana boshqasi esa tayyor-langan yeng va yoqalarni ko'ylakka o'tqazyapti.



Gulnoz bularni ko'rib hayron bo'lib qoldi. Avvallari u ko'ylakni bitta odam tikadi, deb o'ylab yurardi. Negaki, ko'pincha, uning ko'ylagini oyisi Sabohat opaning o'zi tikib berardi-da.


– Bu yerda ko'ylakni ancha odam tikadimi? – xolasidan so'radi Gulnoz.

– Ha, oppoq qizim, – javob berdi xolasi.

Gulnoz o'sha kuni fabrikadan juda xursand bo'lib qaytdi. Ko'rganlarini o'rtoqlariga gapirib berdi. Oyisi ishdan qaytgach, uning bag'riga otildi-da:

– Oyijon, xolamning ishxonalarida-chi, bolalarga ko'ylak tikisharkan. Bitta ko'ylakni-chi, juda ko'p odam tikar ekan. Endi-chi, ko'ylagimni sira kir qilmadan kiyaman. Bo'lmasam, ko'ylak tikkan xolalarim xafa bo'lishadi-ya? – dedi.

Qizning chug'urlab biyron-biyron gapirayotganini ko'rgan Sabohat opa unga mamnun jilmayib qo'ydi.





QAYSAR CHUMCHUQ

Qadim zamonda bir qaysar chumchuq bor ekan. U oilasida oltita og'a-inisi bilan yashar ekan. U og'a-inilarini mensimay, alohida yashamoqchi bo'libdi. Lekin ona chumchuq undan zor-zor yig'lab iltimos qilibdi:

– O'g'lim, unday qilma, yolg'iz yashash yaxshi emas.

– Yo'q, men baribir ro'zg'orimni alohida qilib yashayman.

– Unday dema.

– Men qiyinchilik bilan topgan-tutganlarimni o'rtada baham ko'rishni xohlamayman.

– Axir avvaldan shunday bo'lib kelgan. Barcha topgan-tutganlarimiz o'rtada bo'lgan. Unday qilma, bolam, – deb zorlanibdi ona chumchuq. Ammo qaysar chumchuq o'z so'zida turib olibdi.

Onasining dili og'ribdi.

Shunday qilib qaysar chumchuq alohida yashay boshlabdi.



Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Bir kuni uni mushuk ta'qib etibdi. Mushuk qaysar chumchuq in qurgan shoxchaga chiqish yo'llarini axtara boshlabdi va nihoyat, chumchuq uxlab yotgan paytda to'satdan hujum qilibdi.

U – Voy-dod! – Chumchuq ko'z yosh to'kib qichqiribdi. – Oyijon, akalarim, qayerdasizlar, meni qutqaringlar!

Bu shovqin onasi va og'a-inilar qulog'iga yetib boribdi. Tezda yetib kelib mushukni o'rtaga olib cho'qiy boshlabdilar. Biri boshidan cho'qisa, biri oyog'idan cho'qibdi. Shu tarzda ular chumchuqchani mushukning changalidan qutqaribdilar.

Onasi esa o'tgan voqeani unutib, chumchuqchani uyiga olib ketibdi. Ular birgalikda bir oila bo'lib yashay boshlabdilar. „Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar“ deganlari shu bo'lsa kerak. Ular yana bir oila bo'lib, birgalashib o'rtadagilarini baham ko'radigan bo'libdilar.



ONA MEHRI

Bundan necha-necha ming yillar burun Soyliq degan joyda mudhish yalmog'iz yashagan ekan. Turqi o'lguday sovuq, ko'zlari o'radek chuqur, tishlari esa qoziqday-qoziqday ekan. Yo'lida tog', azim daryolar uchrab qolsa, bir ag'anab qanot chiqarar ekan-da, ko'zlagan manzilga bir zumda yetar ekan. U qah-qah urib kulsa, atrof tog'dan tosh dumalaganday dahshatli ovoz qoplar, uning qadami yetgan tuproqda giyoh unmas, odam zoti tirik qolmas ekan.

Yalmog'iz qishloqdan qishloqqa o'tib, odamlarga sira kun bermabdi: yo'lovchilarni ham olib qochibdi, o'tin tergani chiqqan go'daklarni ham yebdi. Ko'p o'tmay Soyliq tevaragidagi qishloqlar, manzillar huvillab qolibdi.

Bir kuni u o'rmonda katta gulxan yoqib, cho'ldan tutib kelgan o'ljasini pishira boshlabdi. O'ljasi odam ekan. Uni yeb olib, o'zini-o'zi maqtashga tushibdi.

– Yer yuzida mendan kuchli narsa yo'q! Tog'lar-ni kemirib tashlayman! Jamiki tirik mavjudotning yelkasiga minib olganman, ular mening qulim! Mana



bu suyaklarning egasi ovchi edi. Ko'ziga ko'rinishim bilan yarog'ini itqitib yalinishga o'tdi. Yalinishiga qarab o'tirarmidim, tappa bosib yem qildim. Voh-ho-hey!!! Menga bas keladigan kuch yo'q.

Kunlardan bir kun yalmog'iz yerga ag'anabdi-da, qanot chiqarib uchibdi.

Uchibdi-uchibdi, yurtdan yurtga ko'chibdi. O'lja qi-dirayotgan ko'zi vahshat bilan yonarmish. Kun botish vaqtida Uzunterak degan qishloqdagi so'lim bir olmazorga qo'nibdi. Bog' kimsasiz ekan. Daraxtlar panasiga bekinib, atrofni kuzatibdi. Xuddi shu daqiqada olmazor burchagidagi pastakina uyning eshigi ochilibdi. Uydan bola ko'tarib, yoshgina juvon chiqibdi. U bog'ga kirib, o'g'liga olma uzib berayotgan ekan, uni yalmog'iz ko'tarib qochibdi. Yarim kechada Soyliqqa yetishibdi. Yalmog'iz shox-shabbalar yig'ib, olov yoqibdi. Gulxan yorug'ida juvonning ko'zi uyilib yotgan suyaklarga tushibdi-yu, dodlab yuboribdi. Bolani ko'ksiga bosganicha dag'-dag' titrarmish.



— Hoy, odamzod! — dag'dag'a qilibdi u, — buyrug'im-ni bajarsang qutulasan. So'zimni ikki qilsang, quruq suyaklaringina qoladi. Qani bo'l, mening ko'z ol-dimda bolangni anavi jarga irg'it!

Juvon ko'zlarini katta-katta ochib, hayrat bilan unga tikilibdi-yu, churq etmabdi. Bolasini mahkam quchibdi. Yalmog'iz g'azablanib, bolaga qo'l uzat-gan ekan, ona faryod ko'tarib, uning yuziga chang solibdi. Shundan keyin yalmog'izning tuklari tikkayib, ko'zi va tirnoqlariga qon yuguribdi. Qulog'i ustidagi uzun sochidan bir tola yulgan ekan, ona-bola qop-qorong'u zax o'raga tushib qolishibdi. O'raning to'rt tomoniga uzun-uzun mixlar qoqilgan ekan. Son-sa-noqsiz kavaklardan chipor ilonlar bosh chiqarib turi-shar, tutqunlarga qarab vishillar ekan. Yalmog'iz o'ra tepasida turib juvonga do'q uribdi:

— Bolangni bo'g'ib o'ldirasanmi yoki ilonlarga yem bo'lasanmi? Qaysi birini tanlaysan?

— Go'shtimni qiymalasang ham bolamdan ajral-mayman! — deb ichiqaribdi ona. Uning kuchli ovozidan




Oxiri o'zi o'ylab qo'ygan eng so'nggi chorasi-ni ishga solmoqchi bo'libdi. „Bu bilan ham juvonn-i yengolmasam, ish tamom, o'zim yengilgan hisob-man“, deb o'ylabdi.

U qulog'i ustidan yana bir tola sochini yulgan ekan, o'sha daqiqadayoq o'ra ichi butunlay o'zgaribdi. Mixlar ham, ilonlar ham qayoqqadir yo'qolibdi. Ammo qum ostidan biqir-biqir loyqa suv chiqa boshlabdi. Ona yalmog'izning niyatiga avval tushunmabdi. Suv onaning beliga yetgan ekan, yalmog'iz g'azab bilan so'z qotibdi:

– Ha, qaysar xotin, qalaysan endi?

Ona o'lishini bilibdi-yu, yalmog'izning do'q-po'pi-sasiga e'tibor bermabdi. Bolasini bag'riga bosib o'pa boshlabdi, qop-qora momiq sochlarini yuziga surtibdi, peshanasini silabdi. Juvonning bu harakatlari yalmog'izni juda sevintiribdi. „Bolasi bilan xayrlashayotibdi, hozir bo'g'a boshlaydi“, deb o'ylabdi u. Biroq shu payt ona boshini yuqoriga ko'taribdi-da, yalmog'izga shunday javob qaytaribdi:

– Sen odamxo'r, menga jazo beraver! Menga hukmingni o'tkazolmaysan. Men onaman! Tanamni nimtalab tashla, do'mbog'imni bitta o'psam hamma jarohatlarim tuzaladi, dard-alamni ko'rmaganday





bo'lib ketaman. Lekin men o'lmay turib, bolamga tegolmaysan!

Suv onaning yelkasidan oshibdi. Go'dak yig'lay boshlabdi. Suv onaning og'ziga yetibdi. Tag'in ko'payib-ko'payib, uni ko'ma boshlabdi. Juvon bo'tana ichida o'zini rostlab, bolasini o'ng kaftiga o'tkazibdi-da, qo'lini baland ko'tarib, suvdan chiqarib turibdi. Suv ostidan onaning biqir-biqir nafasi chiqar, shundayam qo'li bolani ko'tarishdan tolmabdi. Bola o'jiz kaftda pitirlayverib, onasining ko'ksini qidira-qidira, yiqilib tushibdi. Ona panjalari jon talvasasida suv ostidan uni qidira boshlabdi. Biroz o'tgandan so'ng cho'kkan bolasini yana topib, yuqoriga ko'taribdi!..

Buni ko'rgan yalmog'izning quti o'chib, badanini titroq bosibdi. Chunki bunchalik bukilmas irodani hali sira ham ko'rmagan ekan-da! U osmonga, cho'qqiga, tog'larga qarab alam bilan o'kiribdi:

– Tamom bo'ldim, tamom! Eh, dunyoni larzaga keltirgan onlarim, qayoqdasan?!

U bo'kiraverib charchaganidan so'ng bir dumalab qanot chiqaribdi-da, tog'-toshlar orasiga, pastqamliklarga tomon yo'l solibdi.

Sekin-sekin o'radagi suv kamaya boshlabdi. Ko'p o'tmay o'ra ostidagi qumlar o'zi qolibdi. Bechora



ona bolasini mahkam quchoqlaganicha hushsiz yotgan emish. Bir bulbulcha ular tepasida paydo bo'lib, sayrayveribdi, ona-bola holsizgina qo'zg'alibdilar-da, bir iloj qilib o'radan chiqib olishibdi. Ona ko'zini ochib, daraxt shoxida tinmay xonish qilayotgan bulbulchani ko'ribdi. Unga quloq solib, yuzida tabasum paydo bo'libdi. Keyin tirik qolganiga sevinibmi yoki begunoh azoblanganiga xo'rliigi kelibmi, yig'lab yuboribdi. Bulbulcha sayrab-sayrab uni yupatgan bo'libdi. Onaning ko'ngli yorishibdi, u bolasini o'pa-o'pa qishlog'iga ravona bo'libdi.

Oradan talay yoz-qish o'tibdi. Ona qarib qolibdi, uning o'g'ilchasi esa pahlavon bo'lib ulg'ayibdi. Bir kun pahlavon tog'-toshlarda ov qilib yurgan ekan, u o'sha bulbulcha bilan uchrashib qolibdi. Bulbulcha ular bilan bo'lgan voqeani yigitga alam bilan aytib beribdi. Pahlavon yalmog'izdan odamlar o'chini olishga bel bog'labdi.

U yalmog'izni yetti yil izlabdi. Oxiri Soyliqdagi eski g'ordan topib, u bilan ikki kecha-yu ikki kunduz olishibdi. Uchinchi kun payt poylab turib, yalmog'izning yuragiga qilich sanchibdi...

Shu-shu el-yurt yalmog'izdan qutulib, bexavotir yashay boshlabdi.



MEHR

Qizil avtomashina Ko'kcha dahasining kunchiqar tomonidagi ko'chalardan birida, katta temir darvoza oldiga kelib to'xtadi. Mahmudjon aka Klara opa bilan Jahongirni yetaklab mashinadan tushganlarida darvoza ochildi. Jahongirning buvijonisi quchoq ochib ularga peshvoz chiqdi.

– Aylanay bolamdan, o'rgilay o'zimning toycho-g'imdan, – deya Jahongirni bag'riga bosib u yuzidan, bu yuzidan cho'lpillatib o'pdi. Keyin kuyovi, qizi bilan omonlashdi. – Yaxshi yuribsizlarmi, uydagilar hammasi omonmi?

– Rahmat, bugun uyda ozgina hashar bor edi, – dedi Mahmudjon aka hovliga kirib, so'riga to'shalgan ko'rpachaga o'tirishgach. – Jahongir sizlarnikida bir kungina mehmon bo'lib tursin deb olib keldik.

– Bosh ustiga. Bolajonim oftobda yurib, kasal bo'lib qolishi mumkin. Yaxshi qilibsizlar, olib kelib.

Buvisi dasturxon yozish uchun harakatga tushayotgan edi, Mahmudjon aka uni to'xtatdi.



– Oyi, kerak emas. Shoshib turibmiz. Boshqa safar mehmon bo‘larmiz.

Ular o‘rinlaridan qo‘zg‘alishlari bilan boyadan beri hech nima demay xomush o‘tirgan Jahongir ham dik etib o‘rnidan turdi-da, eshik tomonga qarab intildi.

– Ha, buvingnikida qolmaysanmi? – so‘radi oyi-si. – Axir kechgacha maza qilib bu yerda o‘ynaysan, oftobda toblanasan.

– Yo‘q, uyga ketaman, – Jahongir qovog‘ini solib oldi.

– Uyda hasharchilar ko‘p. Senga hech kim qaray olmaydi, – tushuntirishga harakat qildi onasi.

– Yo‘q, uyga ketaman!

– Qolaqol, bolam, – yalindi buvisi, – opang ovqat pishiradi ularga. Sen men bilan gaplashib o‘tirasan.

– Yo‘q, uyga ketaman! – endi u yig‘lamsiray boshladi. Dadasi qattiqroq gapirmoqchi bo‘lib og‘iz juftladi-yu, lekin foydasi yo‘qligini bilib indamadi. Jahongir o‘zi shunaqa. Bir so‘zlik. Erkaroq o‘sgani uchun hali hech kim uning ra‘yini qaytarmagan. Lekin hozir o‘jarlik qilishining boshqa sababi bor edi. Nega endi dadasining o‘rtoqlari, qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilar uning uyida ishlashadi-yu, Jahongir buvisi bilan gaplashib, televizor ko‘rib o‘tirishi ke-



rak. Yo‘q, u ham hasharchilarga qarashadi. Shuning uchun, albatta, uyga ketishi kerak. Ammo bu haqda dadasiga ham, oyisiga ham hech nima demadi. „Uyga ketaman“ deb turib oldi, xolos.

– O‘jarlik qilmay qolsang bo‘lardi, – deya dadasi unga yana bir marta aytib ko‘rdi, mashinaning oldiga yetib kelishganda.

Jahongir javob bermadi. Yerga qarab, qovog‘ini uyub turaverdi.

– O‘tir, ketdik, – dadasi jahl bilan mashina eshigini ochdi. Mashina joyidan qo‘zg‘alib, Nazarbek tomonga qarab yurib ketdi. Buvisi noiloj qo‘l silkib, xayrlashib qoldi.

Mashinada o‘tirib Jahongir o‘zicha o‘ylab borardi: „Bugun yakshanba, bog‘chadagilar ham dam olishadi, bo‘lmasa ertalab turib, meni o‘sha yerga olib borib qo‘yishgan bo‘lardi. Yaxshi ham dam olish kuni. Uyda hasharchilarga choymi, suvni tashib berib tursam ham harna. Bitta bo‘lsa ham g‘isht olib berganim yaxshi. Attang, chelakdagi loy og‘ir-da, bo‘lmasa o‘zim tashirdim“.

Qiziq, nega yer qimirlaydi-a? Qanday qilib shunaqa katta yer qimirlarkin? Agar qimirlamaganida



uylari ham buzilib, yorilib ketmasdi. Yerning kuchi judayam ko'p ekan-da. Shunday imoratlarni buzib yubordi-ya! Endi yangitdan uy qurish kerak. Ko'pchilik bo'lib bir-birlariga yordamlashib qurishyapti. Yaqinda Jahongirlarning uyi ham bitib qoladi.

Mashina Nazarbek yaqinida qator yangi uylar qurilayotgan joyga kelib to'xtadi. Ular mashinadan tushganlarida hasharchilar allaqachon ishni boshlab yuborishgan edi. Jahongir yangi qurilayotgan uyga mehr bilan tikildi, chehrasi yorishib, hasharchilar tomon yurib ketdi.





HOZIR, BUVIJON!

Dilbar maktabdan keldi-yu, apil-tapil choyini ichdi. Stol ustini naridan-beri yig'ishtirgan bo'lib, ko'chaga yugurdi.

– Qayoqqa, qizim? – so'radi Malika xola nabirasining indamay chiqib ketish odatini bilgani uchun.

– Hozir, buvijon, – dedi ko'cha eshikka yaqinlasha turib Dilbar.

Buvijonisi orqasidan: „Tezroq kel!“ deb qoldi va chala artilgan stol ustini boshqatdan artdi. Keyin erinibgina yog'ayotgan qordan oqarib qolgan yo'lakni supurib qo'ydi.

Krandan suv burab, paqirlarni to'ldirdi, oshxonaga eltdi. „Bolam tushmagur-ey, kap-katta bo'lib qoldi-yu, nima qilarkin bilib-bilib ish qila qolsa! Hatto ovqat yegan idishini ham yuvmaydi. „Hozir“ deydi-yu, lip etib g'oyib bo'ladi“, dedi o'ziga-o'zi.

Malika xola katta naqshinkor darvozadan ko'chaga qaradi. Chuvillab o'ynayotgan bir to'da bolalar orasida Dilbar ham bor edi.



Malika xola bir-ikki qadam bosib, nabirasini chaqirdi:

– Dilbarxon, hoy Dilbarxon!

Dilbar bir qaradi-yu: „Hozir, buvijon!“ deb yana o‘yinga tutindi.

– Kela qol, yordamlashib yubor, qizim! – dedi Malika xola yalingansimon. Bu so‘zlar Dilbarning qu-log‘iga kirdimi-yo‘qmi, har qalay u buvisining gapini javobsiz qoldirmadi:

– Hozir, buvijon!

Malika xola hovliga kirib ketdi. Yerto‘ladan kartoshka, piyoz olib chiqdi. Un eladi. Xamir qordi. Xamirni kelini kelganda qilsa ham bo‘lardi-yu, uni ayadi. Axir Dilbarning oyisi ishdan charchab keladi-da.

Oradan ancha-muncha vaqt o‘tdi. „Hozir“ degan qizchadan hamon darak yo‘q.

Malika xola yana ko‘cha eshigidan mo‘raladi. Tavba, Dilbar qayoqqa ketdiykin? Bolalar ham siyraklashib qolishibdi. Malika xola bolalardan so‘radi. „Lolalarnikiga ketdi“, deyishdi.

– Chaqirib bera qol, bolam, – dedi Malika xola ulardan biriga.

Bola yugurib bordi-yu yugurib keldi:



– Hozir, dedilar.

Malika xola chiqib qolar deb kutib turdi... Chiqmadi, oradan ancha mahal o'tgach qo'lidagi qo'g'irchoqning ro'molini to'g'rilab, bitta-bitta qadam bosib Dilbar bilan o'rtog'i kela boshladi. Oshxona oldidan o'tib ketayotgan edi, buvisi:

– Kela qol, qizim, kartoshka artib yubor, – dedi xafa bo'layotganini yashirishga urinib.

– Hozir, buvijon! – shunday dedi-yu, Dilbar o'rtog'ini boshlab xonasiga kirib ketdi. O'rtog'inikidan olib chiqqan qo'g'irchoqni karavotga yotqizdi, ustiga oq choyshab yopdi. Qulog'iga yana buvisining ovozi chalindi. Mayingina qilib:

– Hozir, buvijon! – dedi.

YONG'OQJON

Bor ekan-da, yo'q ekan, qishloqning eng chekasida bir nihol o'sgan ekan, unga odamlar erkalab „Yong'ogjon“ deb nom qo'yishgan ekan. Odamlar yaxshi ko'rishganidanmi yo o'zining bag'rikengligidanmi Yong'ogjon barvasta, qad-qomatli bo'lib yetishibdi. Uning niyati odamlarga faqat yaxshilik qilish ekan. Vaqti kelib, marjon-marjon tugunchalar tugibdi. Bo-



lalar darrov uning uch-uchigacha tirmashib chiqa boshlashibdi. Ularning hammasini birdaniga ko'tarolmaganidan yong'oqjonning tanasi zirqirab ketibdi.

– Tusha qolinglar, yana yiqilib ketmanglar, – desa, bolalar quloq solishmabdi. Bitta sho'xrog'i esa shox uchidan ko'k tugunchani olaman degan ekan, oyog'i toyib ketibdi-yu... Xayriyat, yiqilmay boshqa shoxga osilib qolibdi.


Yong'oqjonning zorlanishiga qaramay, ular tugunchalardan uzib tushishibdi. „Bir maza qilib yeylik“, – deyishibdi o'rtaga uyib.

– Hali yeyolmaysizlar, achchiqman.

– He-he, bizlarni aldayolmaysan, o'rikni pishmasdan yeb, maza qilganmiz.

– U boshqa-yu men boshqa. Pishay, jiqqa moy bo'lay, – desa ham bolalar Yong'oqjonning gapini quloqqa olishmabdi. Tugunchalarni kappalab og'izlariga solishibdi. Solishibdi-yu, achchiqligidan dodlab yuborishibdi. Oralaridagi sho'x bola alam qilganidan daraxtni kesakbo'ron qila boshlabdi. Yong'oqjonning badani yana og'rib ketibdi.

– Yeyolmaysizlar, dedim-ku, – debdi titrab. – Endi pishganimda kelinglar.





– Pishganingda ham achchiq bo'lasan, bizni yomon ko'rarkansan.

– Men aqlli, gapga quloq soladigan bolalarni yaxshi ko'raman, – debdi Yong'oqjon o'zini bosib.

Bolalar undan norozi bo'lib, uylariga qaytishibdi.

Yoz bo'yi Yong'oqjon quyoshdan nur simiribdi. To'nini o'zgartiribdi. Mag'zi yog'ga to'lib, yetilibdi. Ammo bolalar uning oldiga hadeganda kelishavermabdi. Yong'oqjon ularni kutaverib charchabdi. Oxiri ukajonisi – Soqqani yerga do'p etib sakratibdi-yu, bolalar oldiga dumalatib yuboribdi.

Chillak o'ynayotgan bolalar qarashsa, antiqa bir narsa dumalab-dumalab ular tomon kelayotganmish. Hayron bo'lib turishsa, Soqqa ularning yoniga kelib, bidir-bidir gapira ketibdi:

– Men, akajonlar, sizlarga keldim. Biz Fotima-Zuhra, Hasan-Husan....

– To'xta, o'zing kimsan? – so'rashibdi bolalar.

– Biz Fotima-Zuhra, Hasan-Husan, aka-uka Yong'oqjonlar g'arq pishib, yog'ga to'lib shishib o'z manzilimizda sizlarni kutib turibmiz. Tashrif buyurishlaringizni so'raymiz, – shunday deya Soqqa orqasiga qaytayotgan ekan, uni zo'rg'a to'xtatib qolishibdi.



- Bormaymiz ham, yemaymiz ham, achchiqsizlar...
- Yeysizlar, o'ynaysizlar...

Ushoqtoy degan bola Soqqavoyning gapiga piasand qilmay, chillak o'ynashayotgan ekan. Soqqavoy bittasining qo'liga lip etib chiqib olibdi-da, chillakni uchirib yuborib, o'zi pastga kalla tashlabdi. U yerdan chiqib, dumalab-dumalab ketaveribdi. Yana yo'l-yo'lakay ashula xirgoyi qilib boraveribdi:

- Men yong'oqman, yong'oqman,
Ko'ngli juda oppoqman...

Ushoqtoy va uning bir-ikkita o'rtog'i Soqqavoyga ergashishibdi. Yong'oqjon ularni ko'rib, suyunganidan qah-qah urib kulgan ekan, mevalari duvillab yerga tushishibdi. Bolalar shosha-pisha ularni terib, cho'ntaklarini, qo'yni-qo'njilarini to'ldirishibdi va uy-uylariga jo'nashibdi.

Ushoqtoyning buvijonisi Yong'oqjonning aka-ukalarini ko'rib, suyunib ketibdi. Ulardan totib ko'rishi bilan kuchga kirib, oyoqqa turibdi. Chunki moyi unga tabib dorisidan ham ortiq davo bo'libdi. Ushoqtoy ham yeb ko'rgan ekan, shunaqangi yaxshi emishki, mazasi og'zida qolibdi. Bugina emas, birdan aqliga-aql qo'shilib, ko'paytirish jadvalini birpasda yodlab



olibdi. Keyin buvijonisi bolalarni boshlab, Yong'ojonning oldiga boribdi.

– Umringdan baraka top, Yong'ojon, sen kuchsizlarga kuch berasan. Ushoqtoylarning aqliga aql qo'shasan. Ming yil umr ko'r, – deb duo qilibdi.

Yong'ojon odamlar sog'ligiga foyda keltirganidan mamnun bo'lib, uzoq-uzoq yillar yashar ekan.

SUHBAT

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, suvlari tiniqligidan toshlarigacha ko'rinib turgan hovuzcha bo'yida tol bilan majnuntol o'sgan ekan. Ular nihollikdan birga kamol topgan, biri hovuzchani u betida bo'lsa, biri bu betida turib qo'shnichilik qilisharkan. O'tgan-ketganlar ularning qaddi-bastilariga mehr bilan qarasharkan, taglarida maza qilib dam olib ketisharkan. Tollar ham bir-birlariga qarab bo'y olisharkan.

– O'rtoq, o'rtoq, – debdi tol majnuntolga kunlardan bir kun, – seni qachondan beri bilaman. Nega doim boshingni egib turasan, qaddingni sira rostlamaysan? Ko'pincha parishon ko'rinasan?

– Yo'g'-e, o'rtoqjon, sen o'ylaganicha parishon emasman. Boshim egikligi odamlarga bo'lgan mu-



habbatimdan. Ularni hurmat qilganimdan oldilarida boshimni egib turaman. Ayniqsa, barvaqt turib oyisiga yordam bergan bolalarni ko'rsam, yig'lamasdan bog'chasiga ketayotgan kichkintoylar yonimdan o'tishsa, xursand bo'laman. Boshim egikligi – yaxshilarga ta'zimimdan.

– Nega bo'lmasa, kechasi ham boshingni ko'tarmaysan?

– Tunlari men yog'du sochgan yulduzlarga salom beraman. Tun hamrohi Oymomani qutlayman. Qara, shuncha kishilar orom olsin, ko'ngli tinchlan-sin, deyman. Aytmoqchi, nega sen menga o'xshab bosh egmaysan, nuqul tepaga, yonveringga qarab o'sasan?

– Men ham odamlarning kuniga yaray, deyman. Novdalarim yetilgach, uni kesib oladilar.

– Tanang zirqiramaydimi?

– Yo'g'-e, aksincha, bahra olaman. Yangi qanotlar chiqaraman. Shox-shabbalarim kimlarningdir yangi qurgan uyiga kerak bo'ladi, kimlarningdir tokini ko'taradi. Kishilar kuniga yarashim – bu mening baxtim.

Ikkala o'rtoq uzoq suhbatlashishibdi. Ular kishilar uchun xizmat qilishlaridan mamnun ekanlar.



YO'LDA

Ular birin-ketin bog'chadan chiqishdi. Rauf, Yulduz, Nargiza, Olima... Biri onasining bo'ynidan quchib olgan, biri sevinchdan shataloq otgan, yana biri... Ular orasida Yulduz pildirab borardi. U oyisi bergan olmani g'archillatib yeb: „Aynaniy oyimdan“, deb erkalandi.

Hamma quvnab-quvnab bordi-yu, ammo Alisher negadir oyisiga tixirlik qiladi. Yig'lay desa, ko'zidan yosh chiqmaydi. Dam oyisining sumkasiga yopishadi, dam uning: „Qo'y, bolam“, – deyishiga qaramay, narsa to'la to'rxaltani tortqilaydi.

– Olma topib berasiz, olma yeyman, – dedi u battar tajanglashib.

– Xo'p, o'g'lim, uyda bor, hozir... – uni ovutishga urindi oyisi.

– Yo'q, hozir topib berasiz. Ana, Yulduz yeb ketyapti-ku. – Alisher birdan oyisining oyoqlariga yopishdi.

– Olma yeym-a-n!


O'tgan-ketgan bolalarning unga qarashlaridan jahli battarroq chiqib baqiraverdi. Shu orada bolalardan birining qo'lidagi o'yinchoq mashinaga ko'zi tushib:



„Mengayam mashina“, deb oyisini battar xit qildi. Oyisi bir narsa degandi, yerga yotib oldi. Top-toza kiyimlari tuproqqa belandi. „Tur, odamni uyatga qo‘yyapsan“, – deb oyisi turg‘izmoqchi bo‘lsa, yerga battarroq yopishdi. Undan hech qaysi bola kulmadi. Aksincha, „viy, erkatoy“ deb qo‘yishdi. Xunob bo‘lgan onaga Yulduzning rahmi kelib, qo‘lidagi olmasini Alisherga uzatdi.

– Ma, ola qol! – mehribonchilik bilan dedi Yulduz.

Ammo Alisher uning qo‘lini turtib yubordi. Olma ancha yerga uchib tushib, dumalab ketdi. Yulduzning biram yig‘lagisi keldiki, lekin o‘zini tutdi. Oyisining aytganiga kirmaydigan bunday bola oldida yig‘lagandan kulgani yaxshi.





ODOBLI-YU AQLLI BOLALAR

Ikki tengqur bola va bir qizaloq eski g'ildirakni biroz tomosha qilib qolishdi. Ular g'ildirakni yiqilmasligi uchun ushlab turib g'ildiratib ko'rishdi. Lekin qo'ldan chiqarishgan zahoti g'ildirak u yoq-bu yoqqa chayqalib yiqildi. Bu buzuq g'ildirak edi. Buni birinchi bo'lib Ravshan ko'rdi. Bir necha spitsalari g'ildirak gardishidan chiqib ketgan, ulardan biri esa singan edi.

– Endi men bilaman, Aziz bobo nima uchun g'ildirakni bu yerga tashlaganini... Ta'mirlasa kerak, – dedi Ravshan.

– Qo'ysang-chi, Aziz bobo o'rniga yangisini qo'yib olgan, – e'tiroz bildirdi Lola.

– Bularni qayoqdan bilasan, puchuqvoy? – dedi qizchaga bepisand boqib Ravshanning o'rtog'i Tolib.

– Mana, qaranglar, – Lola hovlini ko'rsatdi. – Arava joyida yo'q... Aziz bobo o'rmonga ketibdi.

– Demak, – dedi Ravshan. – Endi g'ildirak hech kimga kerak emasga o'xshaydi.



Tolib taklif kiritdi:

– Kelinglar, agar shunday bo'lsa, uni o'tloqqa olib borib g'ildiratib o'ynaymiz.

Ravshan va Lola o'ylanib qolishdi. Ular yerga yulingan spitsalari bilan qapishib yotgan eski g'ildirakdan ko'z uzishmasdi.

Shu payt „chu-chu!“ degan ovoz eshitildi. Bolalar o'rmondan chiqib kelayotgan Aziz boboni ko'rishdi. U sekin, shoshmasdan, o'z odaticha otni „chu-chu“lab kelardi. Chol mingan arava yaqin kelgach, bolalar unga yopirilishdi.

Ravshan birinchi bo'lib gap boshladi:

– Buva, manavi g'ildirak endi hech kimga kerak emasmi?

Aziz bobo g'ildirakka qarab turib dedi:

– Senga nima desam ekan...

– Biz uni o'ynagani o'tloqqa olib ketmoqchimiz, hech nima qilmaydimi?

– Bu nima deganlaring? – bolalarga quvlik bilan qarab dedi Aziz bobo.

– U yerda g'ildiratib o'ynaymiz-da...

– G'ildiraydigan holi qolmagan, bolam, – dedi Aziz bobo.



– Endi uni qo'yishga biror joy topish kerak.
– Qayerga qo'yamiz, buva? – hovliqib so'radi Ravshan.

– Buni o'ylab ko'rish kerak.

Bobo jilovni siltadi va ot hovli tomon yurib ketdi. Ravshan, Tolib, Lola jimib qolishdi, Aziz bobo aytgan so'zlar ularni o'ylatib qo'ygan edi.

Jimlikni birinchi bo'lib Ravshan buzdi.

– Metallomga topshirsakmikan-a? Bu g'ildirak...

– Metallomga faqat temirini olishadi, yog'och gardishini olishmaydi, – dedi Lola.

– Hech bo'lmasa temirini chiqarib olsa bo'lar, – quvvatladi Tolib.

– Qolganini-chi? – so'radi Lola.

– Yoqamiz, – maslahat berdi Tolib.

– Yo'-o'-q, g'ildirakni sindirib yoqish mumkin emas, – dedi Ravshan. – Boshqa biror nima o'ylab topish kerak.

– Ey, menga qaranglar, – dedi jonlanib Tolib, – g'ildirakni yaxmalakka o'rnatib, unga tayoq bog'lasak, so'ng chanani qo'shsak... Eslaringdami qishda katta bolalar qanday charxpalak yasashgan edi.

– Qish yana qachon bo'ladi, deb qarab turamizmi! – kuldi Ravshan. – Bahor endi boshlanyapti-yu.



G'ildirakni nima qilamiz, deb uzoq o'ylashdi, bahs-lashishdi, lekin bir fikrga kela olishmadi.

G'ildirakni turg'izib, g'ildiratib daraxtga suyab qo'yishdi. Aziz bobo esa bu voqeani ko'rib va eshi-tib turgan edi. Xashakni omborga tushirib bo'lgach, bolalarga yordam bermoqchi bo'ldi. Dalaga qaytish-da otini tag'in to'xtatib, so'radi:

– Xo'sh, g'ildirakni nima qilishni o'ylab topdilaring-mi?

– Yo'q, yo'q, buva, hech nima o'ylab topolmadik.

Shunda chol bolalarga o'girilib, ularga nimadir deb shivirladi. Bir necha kundan so'ng havo isib ketgach temirdan ajratilgan g'ildirak gupchagining bir tomonini kesib olib qishloq chekkasidagi yakka daraxtning eng baland uchiga o'rnatishdi.

Dala va o'tloqlar ko'm-ko'k bo'lishi bilan bolalar eski g'ildirak ustida ikki laylakni ko'rishdi. Ular al-laqachon g'ildirakka in qo'yib olgan edilar.

Eski g'ildirak yangi joyda o'z ishini ana shunday boshladi.



OQ LAYLAKLAR

Qishlog'imizning nomi qiziq: Laylakxona. Laylakxonalikman deb aytasangiz, boshqa qishloqdagilar kulib qo'yadi. Oldinlari bunga e'tibor bermasdim. Nima, Laylakxona bo'lsa, Laylakxonada. Boshqa qishloqlarning nomi ham bundan chiroyli emas. Soyning nariyog'idagi qishloq Go'jaxo'r. Katta yo'l bo'yidagisi – Respontob. Eh-he, nima ko'p, nom ko'p.

Ko'p bo'lgani bilan bizning qishloq hammaning tilida. Laylakxonalikman, deb og'iz juftlashing bilan qiqir-qiqir kulgi boshlanadi. Ayniqsa, to'y-ma'rakalarda. Qishlog'imiz odamlari ko'rinishi bilan to'yda xizmat qilib yurganlar baravar chug'urlashib qoladi.

- Yo'l beringlar, qatiqchilar kelishdi.
- Hay, qatiqdan tort.

Kattalar-ku so'zini bermaydi. Ammo men tengi bolalarga qiyin. Ko'zimizni ochirishmaydi. Borishimiz bilan dasturxon yozib, oldimizga bir kosa to'la qatiq qo'yishadi. Keyin mazax qilishadi.

- Olsinlar, qatiq sovib qolmasin.





Hatto ba'zida to'yga borsak, biz laylakxonalik bolalarga alohida joy ajratib berib, toza kalaka qilishadi. To'yga bormay desam, buvam hol-jonimga qo'ymaydi.

– Boraqol, Avaz, to'y – bolalarniki. O'ynab kelasan.

Ha, o'ynab kelaman. Qo'shni qishloq bolalari jim turarmidi. Qumg'onday qaynashadi.

– Buva, – dedim bir kuni xafa bo'lib, – qishlog'imizning otini o'zgartirsak bo'lmaydimi?

Buvam kulib yubordi.

– Obbo sen-ey. Tushundim gapingga. Bu qadimdan qolgan nom. Hazillashishadi-da.

– Kerak emas, – dedim tumshayib.

Buvam anchagacha jim turdi. Men ham indamadim. Astoydil xafa bo'lganimni ko'rgan buvam tushuntira boshladi:

– Bolam, qadimgi odamlar qiziq bo'lgan. Mana, qishlog'imizning otini olaylik. Bir zamonlar Qayrag'och deb atashgan. Oq laylaklar qishlog'imiz qayrag'ochlariga in qo'yib ko'payib ketgach, atrof qishloq odamlari Qayrag'ochni unutib, Laylakxona deb nom berishgan. O'shandan beri Laylakxona.



– Laylakka qatiq ichirganingiz rostmi, buva?

– Kim aytdi senga?

– Hamma.

Buvam bo'ynini qashib, jilmaydi.

– Bu ham odamlarning hazili. Hech vaqt laylak qatiq ichganmi? Bolaligimda menga ham shunday hazil qilishardi.

– Menga hazil qilishmasin.

To'g'ri-da, nega menga hazil qilishadi? Nima emish, laylakni ilohiy qush deb, qishlog'imizdagilar kosada qatiq tutishganmish. Buning ustiga umrimda qatiq ichmaganman. O'chakishganday qayerga bormay, darhol choy o'rniga qatiq uzatishadi. Ana shunisi alam qiladi.

Qishlog'imizning oti Laylakxona bo'lgani bilan buvam aytmoqchi, laylak qo'ngan qayrag'ochlar allaqachon qurib, kesilib ketdi. Yakka-yu yagona oq laylak hovlimizdagi qari tutga in qo'ygan, xolos. Har bahor ana shu juft laylak qishlog'imizga keladi.

Bolalar mazax qilganda so'z bilan uzib olaman-u, ammo laylaklar tutimizga kelib qo'nishi bilan o'z-o'zimdand so'zimni yo'qotib qo'yaman.

Payt poylab yurgan bolalar ariday vag'illashib qoladi.



– Qutlug‘ bo‘lsin, laylaging kelibdi. Sigirlaring ham tug‘gandir.

– Qatiq kerak bo‘lsa tortinmay so‘ra.

So‘z topolmay qizarib ketaman. Og‘zidan „qatiq“ so‘zi chiqqan bolaning yuziga chang solgim keladi.

Buvam bo‘lsa qari tutni sira-sira kestirmaydilar. Bargchilar kelganda ham jonivorlarga ozor berasanlar deb, yo‘latmaydilar.

O‘rtoqlarimning hazilidan qanday qutulishim mumkin? Mana, to‘ylarga ham bormay qo‘ydim. Uydagilarga to‘yga boryapman, deyman-u, uydan chiqib, qishloqni bir-ikki aylanib, darrov uyga qaytaman. Xuddi mening uydagilarni aldaganimni sezganday, tut tepasidagi laylaklar bo‘yinlarini cho‘zib, g‘alati tovush chiqarib qo‘yishadi.

Hm... deyman, mushtimni tutib. Jim tursalaring o‘lasanlarmi?

Darsdan qaytib, hovli yuziga to‘kilgan tutlarni terayotgandim, eshikdan Obid kirib keldi.

– Ha, qatiqxo‘r, Sobirnikiga borasanmi?

– Bor-e, – dedim jahlim chiqib.

– Jahling chiqmasin, – dedi Obid tut tepasidagi laylak iniga ishora qilib, – qatig‘ing uviguncha kelamiz. Bugun Sobirning tug‘ilgan kuni.



– Sobirning tug'ilgan kunimi? – dedim mushtimni tugib.

– Hoy-hoy, – dedi Obid orqasiga tisarilib, – nega xafa bo'lyapsan. Hazilni ham tushunmaysanmi?

– Ket, – dedim unga bo'ynimni cho'zib. – Bormayman.

– O'zing bilasan, – dedi Obid. – Borsang...

– Bormayman.

Obid vajohatimdan cho'chidimi, bo'shashib iziga qaytdi.

Aslida u menga hazil qilmasdi. O'zicha qiziqchilik qilmoqchi bo'ldimi? Ammo menga qattiq botdi. Kelib-kelib, lapashang Obid men bilan hazillashadimi? Ko'rsatib qo'yaman unga. O'ch olishga odam topolmay turganimda laylaklar iniga kelib qo'ndi. Yoyiq qanotlarini yig'ishtirishga ulgurmasdan qo'llarimni havoda silkitib, ularni hayday boshladim.

– Kish-kish, hoy-hoy...

Laylaklar e'tibor ham bermadi. Chelakni chaldim. Miq etishmadi. Qizishib ketib iniga qarab qo'limga tushgan narsani ota boshladim. Uyasiga bag'ri-ni berib yotgan laylaklarga otgan kesaklarim tegdimi-tegmadimi, bilmadim, har holda ketma-ket uchib



ketishdi. Uchib ketishgach ham o'zimni bosolmadim. Tutning tepasiga chiqib olib, laylak inini buzib tashladim.

Qani endi kim men bilan hazillasharkan? Ishni qoyil qilgan odamdek tutdan tushdim.

Oradan qancha vaqt o'tdi, bilmayman, uchib ketgan laylaklar qaytib kelishdi. Keksa tutning qurib qolgan uzun shoxiga qo'nib olishib, qanotlarini silkitishdi. Yana qaytib uchib, daraxt tepasida doira yasab aylanishdi. Sherigi qo'nishga hozirlik ko'rayotganida ikkinchisi uning yo'lini kesib o'tib, uchib ketdi. Qo'nmoqchi bo'lgani unga yetib olishga shoshildi.

Bo'shashib ular ketgan tomonga qaradim. Laylaklar tobora uzoqlashib, bora-bora ko'rinmay qoldi.

Laylaklar izidan tikilib qolib, buvamning kirib kelganini sezmadim.

– Ha, – dedi buvam, – nima qilib turibsiz?

– Laylaklar, – tilim aylanmay qolib, birdan ho'ng-rab yig'lab yubordim.

Buvam biror narsadan qo'rqibdimi deb, darrov menga suv ichirdi.

– Nima bo'ldi?

Buvamning so'rog'iga javob bermadim. Chunki daraxt ostida laylak ini titilib yotardi.



– Shamol uchirdimi? – so‘radi buvam hovliqib, – qattiq shamol bo‘lmadi-ku. E jonivorlar-ey. Xayriyat, tuxum qo‘ymagan ekan.

Oyog‘imni sudrab uyga kirdim. Buvam titilib ketgan laylak uyasi oldida soqollarini tutamlab qotib qoldi.

Ertasiga, indiniga, undan keyin ham oq laylaklar tutimizga qaytib qo‘nmadi.

Qishlog‘imizdagi so‘nggi bir juft laylakni men olis-larga qaytib kelmas qilib uchirib yubordim.

Buvam bo‘lsa bu ishni men qilganimni bilsa ham miq etmadi.

Yillar o‘tdi. Baribir qishlog‘imiz nomi o‘zgargani yo‘q...

Oq laylaklarni uchirib yuborganimga hozir juda afsusdaman. Ularni juda sog‘indim.

Har gal qishlog‘imiz chekkasidan oq laylaklar uchib o‘tganida katta-kichik uning izidan termulib qoladi...

AZIZ, AZIZ, YANA AZIZ

Keyingi paytda qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni ora-sida Azizning nomi tez-tez tilga olinadigan bo‘ldi.



Biror bola sho'xlik qilsa, Azizni taniganlar darrov gap qotishadi.

– Voy, Azizga o'xshar ekan-a?

Tili chuchuk bolani ko'rishsa ham: „Azizga o'xshar ekan-a?“ Yerga yotib xarxasha qilsa ham: „Azizga o'xshar ekan-a“. Chiroyli bola ham Azizga o'xshaydi. Bog'chadan qochib kelgani ham. Kim nima qilsa, Azizga o'xshatishaveradi. Hammaga ham o'xshab ketadigan Azizni ko'rgim kelaverdi. Uning ota-onasini mehmonga chaqirdim. Tabiiy, Azizni olib kelishdi. Mening bu niyatimdan mehmonlar bexabar edi.

Eshik tugmasi bosildi. Ochdim, men kutgan mehmonlar. Odat bo'yicha „keling, keling“ boshlandi.

– Amaking bilan ko'rishmaysanmi? – dedi o'g'liga qarata otasi.

– Qani, qani, – dedim qo'limni cho'zib, – toy bola, ko'rishaylik.

Aziz kaftimga qars etib urdi. „Salamalaykum!“

– Zo'rsan-ku, – dedim ularni uyga taklif qilib.

Biz mehmonlar bilan o'rnashib o'tirguncha Aziz xonalarni aylanib chiqdi.

– Amaki, – dedi bu gal burro tilda. – Uyingizda o'n bitta eshik bor ekan.



– Yo'g'-e.

– Rost.

Azizning ota-onasi kulib yubordi. O'g'illarini yoniga chaqirishdi.

– Jim o'tir. Amakingning jahli yomon-a.

Shuncha yil yashab, uyimizda nechta eshik borligiga e'tibor bermagan ekanman. Ichimda sanab chiqdim. To'ppa-to'g'ri. O'yinga botganimni ko'rgan Aziz qo'limdan tortdi.

– Amaki, yomon jahliyiz qayerda?

Kulgi bo'lsin uchun burnimning uchini ko'rsatdim.

– Burniyiz bilan gapirasizmi? – dedi Aziz.

Ota-onasi xijolat tortdi.

– Ko'p mahmadana bo'laverma. Hozir bog'chaga topshirib kelaman.

– Bugun „otdix“, – javob berdi Aziz.

Men uning jingalak sochlarini siladim. Qo'lga shokolad tutqazdim. Aziz shokoladni olarkan, so'radi:

– Amaki, siz ham shokoladni shkafga qulflab qo'yasizmi?

– Voy o'lmasam, – betini tirnagan bo'ldi onasi.

– Mana, ko'rib turibsan, hammasi stol ustida.

– Aldayapsiz, – dedi shokoladni tishlab Aziz, – biza ketgach yashirib qo'yasiz.



„Obbo, – dedim ko‘nglimda, – maqtaganlaricha bor ekan“. U yana tipirchilab uylarga kirib chiqdi. Divan, karavot ostiga egilib qaradi. Mehmonlarga „oling, oling“ deyman-u butun nigohim unda.

– Amaki, – chaqirdi Aziz.

– Qo‘ying, sizni ham ovora qildi, – deyishdi mehmonlar besaranjom bo‘lib.

Ishxonamga kirdim. Aziz kitoblarga angrayib qaradi.

– Hammasi o‘ziyikimi?

– Ha.

– Bularni nima qilasiz?

– O‘qiyman.

– Vuy, boshiyiz og‘rimaydimi?

– Og‘rimaydi.

– Adamlarning boshlari kitob o‘qisalar og‘riydi.

– Jim, – degan zardali tovush eshitildi.

Azizga rangli kitobcha berdim. U yana qo‘limdan tortdi.

– Amaki, manu uyizni bir ko‘ray. – Aziz qulfloq xonani ko‘rsatdi. Ochdim. U shkafdagi rangli idishlarga qaradi.

– Amaki, – dedi shivirlab, – siz do‘konda ish-laysizmi?



Otasi uni dast ko'tarib olib chiqdi. Yoniga o'tqazdi. Suhbatimiz bo'lindi. Ko'p o'tmay mehmonlar „ketamiz“ga tushdi.

Aziz menga ko'zlarini pirpiratib qaradi.

– Amaki, bugun siznikida qolay.

– Qolaver, – dedim.

– Amaki „xo'p“ dedilar, – Aziz otasining yuzidan cho'lp etib o'pdi. – Sizam „xo'p“ deng.

Men kulib yubormaslik uchun sekin chiqib ketdim.

Aziz onasi bilan otasiga astoydil yalindi.

– Menga bir kungina „otgul“ beringlar.

Azizning onasi og'zini berkitdi, ammo otasi chidolmadi. Xonada kaptar qanot qoqqandek qahqaha ko'tarildi.





TUYANI SHAMOL UCHIRDI

Echki Tuya bilan yonma-yon o'tlab yurardi. Kutilmaganda to'zon ko'tarilib, hushtak chalib, kuchli shamol paydo bo'ldi-da, zumda Tuyani uchirib ketdi. Kapaday ulkan Tuya o'qdek olislab uchar, kichraygandan kichrayib borar edi. Avval buzoqday, so'ngra sichqonday, so'ngra asalariday va nihoyat, pashshadek kichik bir nuqtaga aylangan Tuya oxiri butunlay ko'zdan g'oyib bo'ldi. Nogahon yuz bergan bu mudhish mo'jizadan Echki dong qotib qoldi. U hademay hushini yig'ishtirib oldi va Tuya ko'zdan yo'qolgan ufqqa qarab boshini sarak-sarak qildi.

– Uh-hu! Uh-h! – dedi u burun qoqayotgandek. – Sho'rlikka qiyin bo'ldi, ishqilib omon qolsinda.

Echki Tuyaga ichi achib, bir karra „m-ma!“ deb ham qo'ydi. Keyin u hamon quturib yotgan shamolga parvo qilmay maysalarni chimdib yeyishga tushdi.

U: „Tuyani shamol uchirsa, Echkini osmonda ko'r“ maqolini esladi-da, maysadan bosh ko'tardi.



Kallasini bir yonga qiyshaytirib, chap ko'zini qisdi va teran o'ygga cho'mdi. „Uh-h! – M-ma! – dedi o'z-o'ziga. – Shu maqolni eshitsam etim jimirlaydi. Mana endi hammasi ravshan bo'ldi. Maqol faqat nazariy jihatdan isbotlangan ekan, mana amaliyotda esa sinovdan o'tmadi“.

QO'RIQCHI

Bobodehqon oqjo'xori ekdi. U bekam-u ko'st bo'lib o'sdi. Oqjo'xori hosilga kirganda gala-gala chumchuc hujum qildi. Bobodehqon qarab turmadi, biroz o'ylab qoldi: ko'hna kamzulni xariga kiygizib, jo'xorizorning o'rtasiga „qo'riqchi“ qilib qo'ydi.

Bobodehqon xotirjam bo'lib, jo'xorizorga qiyo boqmay yurdi... Bir kuni jo'xorizor oralab nogahon „qo'riqchi“ning ro'parasidan chiqib qoldi. Allaqanday qush polaponlarining qiy-chuvi qulog'iga chalindi. Bobodehqon beixtiyor „qo'riqchi“ning cho'ntagiga ko'z tashladi. Bir tutam xas to'shalgan cho'ntakda chumchuc polaponlari sap-sariq tumshuqchalarini kappa-kappa ochib yotar edi.

Aldangan bobodehqon zahrini ichiga yutib, miyig'ida kulib qo'ydi.



NINACHI

Yozning issiq kunlari bir ermagimiz cho‘milish bo‘lsa, bir ermagimiz ninachi tutish... Turfa rang ninachilar anhorning maysaga bo‘liq yoqalarida qo‘nib-uchib yurishardi. Oriq qomatlari-yu, juft-juft qanotlari biram rangdorki go‘yo quyosh nurli sochlarini ninachilarga atay qadab, xilma-xil bo‘yoqqa bo‘yab qo‘yganday. Naykamalak rangi ularning qanotida jilva qiladi. Bo‘y ufurib yotgan yalpizlarga ninachilar gala-gala bo‘lib qo‘nganda, go‘yo ular „gullab“ turganday ko‘rinadi. Biz kim o‘zarga ninachi tutish bilan band bo‘lamiz. Barmoqlarimizni ohistagina, sharpasiz olg‘a cho‘zimiz. Havoning bemajol to‘lqinini sezib qolishadimi, ular nogahon yengil uchib ketishadi. Birpas lol qolamiz-da, tag‘in o‘zgasini ta‘qib etamiz. Ovimiz baroridan kelsa, boshimiz ko‘kka yetadi. Bir nechasini bir-biroviga maqtab, „aeroplan“ qilib uchiramiz. Ular ushoqqina tanalariga o‘ralgan ingichka oq ipni zo‘r-bazo‘r sudrab yer bag‘irlab parvoz qiladilar.

Bir kuni ninachilarning nafarmon, yashil, zangori, malla tuslilarini uyga keltirib, otamga maqtandim. Otam bo‘lsa, ularga bir sira ko‘z qirini tashladi-yu, so‘ng beparvo shunday dedi:

– Buning qanday paydo bo‘lishini ko‘rmagan-san-da? Balchiqda ko‘milib yuradi. Buzoq boshiga





o'xshagan badbashara. Uning qornini yorib chiqadi ninachilarning bari...

Shunda o'zim ardoqlagan go'zallik timsolidan ko'nglim bir sira sovib ketdi-yu, o'sha go'zallikni paydo qilgan „sir“li maxluqni o'z ko'zim bilan bir ko'rishga oshiqib qoldim.

Bu niyatimga tez orada yetdim. Guzarda cho'milayotsam, anhor yoqasidagi ko'lmakda bir nima ko'rindi. Hayal o'tmay, yam-yashil ninachining yarim tanasi balchiqrang, isqirt suv qo'ng'izining qornini yorib chiqdi. Haqiqatdan ham jonivorning yeryong'oqchalik keladigan vujudi juda ham jirkanch edi. Lekin baribir meni o'ziga rom etgan, kamalakdek serjilo ninachilardan ixlosim hech qaytmasdi.





XO'ROZQAND

Xolida opa o'g'li Jur'at bilan uning o'rtog'i Salimni uyga qo'yib, o'zi bozorga ketdi. Bolalarga: „To'polon qilmay o'tiringlar, agar yaxshi bola bo'lib o'tirsanglar, ikkovlaringga xo'rozqand olib kelib beraman“, deb tayinlab ketdi.

Avval ikki o'rtoq jimgina o'ynab o'tirishdi. Lekin qo'shnilarining o'g'li Olim chiqdi-yu, tinchlik buzildi.

Uning qo'lida yong'oqdek yaltiroq zoldir bor edi.

Olim: „Zoldirim juda uzoqqa dumalaydi“, deb maqtana boshladi. Buni ko'rib Jur'at bilan Salim ham cho'ntaklaridan zoldirlarini olishdi. Ular kimning zoldiri uzoqqa dumalash o'yinini boshlab yuborishdi. Biroq Jur'atning zoldiri uyning yarmiga borib to'xtab qoldi.

– Va-a, maqtangan zoldiring shumi? – deb masxara qilib kuldi Olim.

Bu Jur'atga juda alam qildi. U o'ylab-o'ylab, oxiri:

– Zoldirim yerda dumalashga o'rganmagan. Osmonga otsam-chi, uzoq-uzoqqa ham boradi. Mana, ko'rib qo'yinglar, – dedi. Jur'at zoldirini bor kuchi



bilan shipga otmoqchi bo'ldi-yu, qo'ldan chiqib ketib tokchada turgan gulli choynakka tegib, chil-chil qilib yubordi. Qo'rqib ketgan Jur'at nima qilishini bilmay, turib qoldi. Shunda Olim:

– Tez bo'l, sinig'ini ko'chaga tashlab yuboramiz. Oying ko'rsalar urishadilar.

Bolalar shoshib-pishib choynakning sinig'ini yig'ishtirishayotganda Xolida opa kelib qoldi.

– Choynakni kim sindirdi? – deb so'radi bolalarga qarab onasi. Jur'at nima deyishini bilmay dovdirab qoldi.

– Choy, choynakni, oyi, haligi, o'zi sindi... Ha, o'zi sindi. Rost, – dedi.

Jur'at sekin yer ostidan o'rtoqlariga „aytmanglar“ deganday ishora qildi. Buni sezib turgan Xolida opa shunday dedi:

– O'zi singan bo'lsa, nima ham derdim. Lekin juda qiziq bo'libdi-da! Choynak ham o'zidan o'zi sinar ekanmi?

– Ha, o'zidan o'zi sindi, – dedi Jur'at tetiklanib. Onasi boshqa gap aytmay, qo'lidagi narsalarni qo'ygani qo'shni xonaga o'tib ketdi. Jur'at onasi urishmaganiga suyunib, chapak chalib yubordi. Shu



payt Xolida opa bolalarga xo'rozqand olib chiqd Olim bilan Salimdagi xo'rozqandning tojlari butun Jur'atdagisining esa yarim tojisi yo'q edi.

– Oyi, oyi, nega menga boshi singan xo'rozqand olib keldingiz? – dedi Jur'at.

– Olganimda butun edi, o'zidan o'zi sinib qolib di-da.

– O'zidan o'zi ham sinadimi?

– Axir tokchada turgan choynak o'zidan o'zi singandan keyin, bu ham sinadi-da.

Jur'at yerga qaradi va sekingina:

– Choynakni zoldirim sindirgandi, – deb qo'ydi.





IZ

Zamira xola uyga kirdi-yu, fig'oni falakka chiqib ketdi. Axir nega xafa bo'lmasin, hozirgina polni chinidek qilib yuvib chiqqandi. Shundoq botinka izi bo'lib ketibdi.

– Bilmadim, bu bolalarga qachon aql kiradi o'zi? Qachon bundoq mehnatning qadriga yetishadi? Axir endi kichkina bo'lishadimi? Maktabga borishsa...

Zamira xolaning jahli chiqib hovlida koptok o'ynab yurgan Sherzodni chaqirdi.

– O'g'lim, bu yoqqa kel!

Sherzod endigina ko'chaga qochmoqchi bo'lib turuvdi, ulgurolmay qoldi, noiloj uyga kirdi. Qarasa, oyisining avzoyi buzuq.

– Bu qanaqa qiliq? Shoshmay, avval botinkangni yechib, keyin uyga kirsang bo'lmaydimi? Qara, hamma yoqni iz qilib tashlabsan-ku!

Sherzod juda quv bola. U osongina qutulish yo'lini o'ylardi. „Oyim-ku, hozirgina ko'chadan keldilar. Mening uyga kirganimni ko'rib o'tiribdilarmi?“ – deb qo'ydi ichida.



– Oyijon, – dedi Sherzod mug'ambirona kullib. – Men axir uyga kirmadim-ku.

– Sen kirmasang, kim kiradi? – jahl bilan dedi Zamira xola. Shunda Sherzod:

– Ukam Bunyodning boya uyga kirib ketayotganini ko'rgan edim, – dedi.

Zamira xola battar tutaqib ketdi. „Bunyod o'zi kichkina, oyog'ining izi shunaqa katta bo'ladimi? O'z aybingni ukangga to'nkagani uyalmaysanmi-a?“

Sherzod og'iz ocholmay qoldi. „Masalaning bu tomonini sira o'ylamagan ekanman-da! Eh, xomkalla!“

Nega o'shanda botinkasini yechib kira qolmagan ekan? Ochig'i, iplarini yechishga eringandi. Sherzod hozir pollarni artib qo'yib, gunohini oqlashi mumkin edi. Ammo yolg'on gapirib qo'lga tushib qolgani yomon bo'ldi-da! To'g'risini aytganda, balki oyisi uni kechirarmidi? Kechirardi, albatta.



MAY YOMG'IRI

Botirvoyning otasi daladan yer olgan. Yoz bo'yi kapa tikib, dalada yashaydi. Yeriga bo'lak-bo'lak qilib qovun-tarvuz, pomidor ekadi.

Bir kuni otasi narida chopiq qilayotgan paytda osmonni qora bulut qopladi. Chars-churs chaqmoq chaqdi, momaqaldiroq gumburladi, sharros yomg'ir quydi.

Botir o'zini panaga oldi.

Yomg'ir suvlari jilg'a-jilg'a bo'lib oqa ketdi. Mana, jilg'achalarning biri yugurib keldi-da, yo'ldagi chumoli iniga sizib kira boshladi.

Odatda, chumoli ini do'ppayib turgan qo'rg'onga o'xshaydi. Lekin bu inning qo'rg'onini Botir boyagina tepib, har tarafga sochib tashlagandi. Botir suvning kirishini biroz kuzatib, chumolilarning ahvolini ko'z oldiga keltirdi. Ularga juda achindi. Daraxt panasidan yugurib chiqdi-da, inning atrofiga to'g'on yasashga tushdi. Gir aylantirib, loy bilan o'rab chiqquncha ust-boshi shilta-shalabbo bo'ldi.



Shu payt qo'lida ketmon ushlagan otasi yugurib kelib qoldi.

– Hoy, nega panaga o'tmay, ivib o'tiribsan? – so'radi u hayron bo'lib.

Nima deyishini bilmagan Botir to'g'risini aytib qo'ya qoldi.

Gap eshitaman, deb o'ylagandi, unday bo'lmadi. Chumolilarni himoya qilganini bilib:

– Yaxshi qilibsan, o'g'lim, – dedi otasi.

SOY SUVI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. U boyning zulmidan qochib, bola-chaqasi bilan bir tog'ning etagiga kelib joylashibdi. Tog'ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan esa sharqirab suv oqar ekan. Dehqon darrov ikki tanobcha yerni haydabdi-da, soydan suv olib sug'orib ekin ekibdi. Keyin esa tog'dagi daraxtlarni kesib keltirib, o'ziga uy quribdi. Hovli tevaragini chetan bilan o'rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi.

Shu orada bir yil o'tibdi.



Kelasi bahorda dehqon yerini haydab sug'ormoqchi bo'lgan ekan, qarasa, soyda suv yo'q emish.

– Ey soy, menga suv ber, ekinimni sug'oray, – debdi soyga.

– Men suvni senga qaydan olib beraman? Axir menga tog' suv bermay qo'ydi, – deb javob beribdi soy. – Bor, tog'dan so'ra.

Dehqon tog'ga boribdi.

– Ey, tog'! – debdi u. – Sen soyga suv yubor. Soy menga beradi, men esa ekinimni sug'orib, hosil olaman.

Tog' negadir bir xo'mrayibdi-yu, do'rillab javob beribdi:

– Mening suvim yo'q. Uni menga yomg'ir bilan qor beradi, o'shalardan so'rasang yaxshi bo'lardi.

Dehqon yomg'irning oldiga borishga majbur bo'libdi.

– Ey, yomg'ir, – debdi u, – tog'ga suv ber, tog' uni soyga beradi, men soydan olaman-da, ekinimni sug'oraman. Evaziga hosil olib, kunimga yarataman.

Yomg'ir shunday javob beribdi:

– Ey odam! Men suvimni o'z vaqtida tog'ga berganman. Lekin suvim nima bo'lardi? Bir sharillab



tushadi-yu, tezda oqadi-ketadi. Tog'ga yozi bilan soydan oqadigan suvni qor beradi. Sen o'shaning oldiga bor.

Dehqon qorning oldiga boribdi:

– Ey, qor, – debdi u. – Sen tog'ga yog'maganing uchun soyda suv qolmayapti. Endi ekinimni men qanday sug'oraman?

Bu gapni eshitib qor hayron bo'libdi. Qoshlarini bir chimirib shunday debdi:

– Axir men har yili tog'ga qancha yog'sam, bu yil ham shuncha yog'ganman. Tog' senga nimanidir aytmaganga o'xshaydi. Bor, u bilan boshqatdan bafurja gaplash, – debdi.

Dehqon yana tog'ning yoniga qaytishga majbur bo'libdi va eshitgan gaplarini aytibdi.

Tog' dehqonning so'zlarini eshitib bo'lgach:

– Bunga o'zing aybdorsan, – debdi qovog'ini solib.

– Men?!

– Ha, sening o'zing, – debdi tog' sal ochilib. – Gaping to'g'ri. Qor ham, yomg'ir ham bu yil me'yorida yog'di. Lekin ularning namini yozi bilan ushlab turishim uchun bag'rimda daraxtlar bo'lishi kerak. Ha,



ustimdagi qorni taqsimlash daraxtlarning ishi. Daraxt bo'lmasa, qishda yog'gan qor bahorda erib ketadi. Mening esa daraxtlarim qolmadi. Ularning hammasini sen kesib ketding. Endi tushungandirsan.

Dehqon o'ylab turib, tog'ning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Keyin u uyiga qaytibdi-da, bir talay ko'chat keltirib, tog'ga ekib tashlabdi. Daraxtlar tez o'sibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo'yi suv oqadigan bo'libdi. Dehqon esa xohlagan paytda ekinini sug'orib, bola-chaqalari bilan yaxshi hayot kechiribdi.





DUM-DUMALOQ QO'NG'IZ

Dum-dumaloq Qo'ng'iz yurgan yo'lida ko'pincha dumalab-dumalab ketar ekan. Bunday semizlikning foydasi ham yo'q-da. U to'ppa-to'g'ri yo'lida ham imillab-simillab yura olar ekan-u, ammo do'ng joylarda, o'ydin-chuqur yo'llarda, goh tepaga chiqishda, goh pastga tushishda dumalab ketar ekan. Shunaqa vaqtda dumalab-dumalab, keyin to'g'ri turib qolsa, yaxshi, biroq chalqancha tushib, oyog'i osmondan bo'lib qolsa, uzoq vaqt tipirchilab, g'o'ng'illab yotar ekan. Shunda birov o'nglab qo'y masa, yotib-yotib, o'lib ham qolishi mumkin ekan. Bir kuni shunaqa chalqancha yotib, ancha vaqt qiynalibdi. Baxtiga, o'sha atrofda Mirzasher degan bolaning Dumdor degan chumchug'i o'ynab yurgan ekan. U Dum-dumaloq Qo'ng'izning yordam so'rab g'o'ng'illaganini eshitib qolibdi-yu, pirillab uchib borib, uning yoniga qo'nibdi.

– Voy, nima bo'ldi senga? – deb so'rabdi Dumdor.

– Ko'rib turibsanku, nima bo'lganini, – debdi Dum-dumaloq Qo'ng'iz ho'ng-ho'ng yig'lab.



– Yig'lama, men senga yordam beraman, – debdi Dumdor.

U pirillaganicha uchib, Mirzasherning bog'iga boribdi. Bu vaqtda Mirzasher bog'dagi so'rida o'tirib olib, Dilshod bilan Shahnozaga qalin kitobdagi er-taklardan o'qib berayotgan ekan...

Dumdor pirillab kelib so'riga qo'nibdi-da, Dum-dumaloq Qo'ng'izning ahvolini tushuntiribdi. Mirzasher kitobini yopib, so'rida qoldiribdi-da:

– Qani ketdik, bolalar, – debdi. – Dum-dumaloq Qo'ng'izga yordam berishimiz kerak.

Mirzasher Dumdor boshlagan tomonga ketaveribdi. Dilshod, Shahnoza, Oqgul ham unga ergashib boraverishibdi. Ular Dumdor ko'rsatgan joyga yetib borishganidan keyin Mirzasher qiynalib yotgan Dum-dumaloq Qo'ng'izni oyoqqa turg'azib qo'yibdi-da, tayinlabdi:

– Baqaloq, – debdi u. – Mehnat qilish kerak. Chumolilarga o'xshab ishlagin. O'shanda ortiqcha semirmaysan, sal-pal ozasan, chopqillab-chopqillab yurasan, nuqul yiqilavermaysan.

– Sizlarga rahmat. Endi harakat qilaman, – debdi Dum-dumaloq Qo'ng'iz...



MUSHUK BILAN CHUMOLI

Bitta juda ham semirib, yiltillab ketgan mushuk yo'l yoqasida mudrab o'tirgan ekan. Ashula aytib ishga ketayotgan Chumoli Mushukni ko'rishi bilan jimib qolibdi-da, qadamini sekinlatibdi. Qo'rqqanidan emas, Mushukni uyg'otib yubormay, deb shunday qilibdi.

Ozmi-ko'pmi vaqt o'tib, Mushuk uyg'onibdi. Ko'zlarini chala-chulpa ochib qarasa, Chumoli bir bog' o'tin orqalab kelayotgan emish. U Mushukning oldiga yetganida o'tinini yerga qo'yib, salom beribdi.


– Hormang, Miyov xola! – debdi.

– Hali horiganimcha yo'q, qora qiltiriq, – debdi Mushuk. – Faqat zerikib o'tiribman, xolos.

Chumoli Mushukning gapi sovuqligidan xafa bo'lish o'rniga indamay kulib qo'ya qolibdi.

– Ishlamasangiz zerikasiz-da, – debdi yana kulib Chumoli. – Men mehnat qilib zerikmayman.

– Nega endi men ishlar ekanman?! – debdi Mushuk ensasi qotib. – „Egam bor, ne g'amim bor“, deb yallo qilib yuraveraman. Sen sho'rlik baxtsizsan. Chunki seni boqadigan, yuvib-taraydigan, erkalab, silab-siypaydigan egang yo'q.





– Bu gapingiz xato, Miyov xola, – debdi Chumoli ranjib. – Men siz o'ylagandek baxtsiz emasman. Baxtliman. Chunki mehnat qilishga yetadigan kuch-quvvatim, g'ayratim bor. Kimki mehnat qilmasa, o'sha baxtsiz.

Mushuk mundoq o'ylab ko'rsa, bahsda yengilib qoladigan, shuning uchun gapni boshqa yoqqa burishga harakat qilibdi:

– Hazillashdim, Chumolivoy, – debdi u. – Men ham baxtliman. Sichqon ovlayman. Bu mehnat emasmi?

– Mehnat, – debdi Chumoli. – Lekin siz har kuni Sichqon ovlamaysiz, har zamonda ovlaysiz. Chikanakam mehnat kun sayin davom etishi kerak.

– Bu gaping ham to'g'ri, – debdi Mushuk. – Men har kuni mehnat qilmayman. Chunki, birinchidan doim qornim to'q. Ikkinchidan, sichqonni egamdan qo'rqqanimdan ovlayman. U meni shuning uchun boqadi. Agar shunday qilmasam, meni adashtirib keladi.

– Demak, siz o'taketgan ayyor ekansiz, – debdi Chumoli. – Odamni aldash yaxshi emas.

U shunday deb o'tinini orqalabdi-da, yo'lida ketaveribdi. Terlab-pishib borar ekan, o'zicha: „Yaxshi



yam egam yo‘q, bo‘lmasa Mushukka o‘xshab yalqov, ayyor bo‘lib qolarkanman“, – deb o‘ylabdi.

Mushuk bo‘lsa Chumoli ortidan qarab turib, o‘zi-cha: „Yaxshiyam egam bor ekan, bo‘lmasa men ham Chumoliga o‘xshab tinim bilmay o‘tarkanman...“ – deb o‘ylabdi.





OCHKO'ZLIKNING OQIBATI

Dengiz yaqinidagi hind qishloqlaridan birida ochko'z, o'taketgan baxil bir dehqon yashar ekan. Kuntlardan bir kuni uning kokos yong'og'i yegisi kelib qolibdi.

U bir tanga olib bozorga boribdi.

– Xo'jayin, kokos yong'og'ing necha pul? – deb so'rabdi u birinchi do'konga yaqin borib.


– To'rt tanga, – debdi baqqol.

– Xabaring yo'qmi, kokos yong'og'ining uch tangaligini qayerdan topsa bo'ladi? – deb o'smoqchilab so'rabdi dehqon.

– Bilaman, manavi qo'shni do'kondan.

Baxil o'sha do'kon yoniga boribdi. Lekin u yerdan ham yong'oq xarid qilgisi kelmabdi. Balki boshqa biror joyda bundan ham arzonrog'i bordir, deb o'ylab u yerdan ham o'tib ketibdi.

Shu zaylda u bir necha soat do'konma-do'kon izg'ibdi. Bir do'konga borsa, yong'oqning narxi bir tanga ekan.





– Og'aynijon, – debdi u do'kondorga, – kokos yong'og'ini qayerdan bepul topsa bo'ladi. Sirasini aytsam, senga pul bergim kelmayapti.

– Hov anavi yerda, dengiz sohilida. O'sha yerda kokos yong'oqlari o'sib yotibdi. Bor o'sha yoqqa, o'zing uzib ol! Olganing uchun hech kimga pul to'lamaysan, – debdi do'kondor.

Ochko'z sevinib ketib, shu zahoti dengiz tomonga yuguribdi. U yerda kokos daraxti bor ekan. Tirmashib chiqib, kokos yong'og'ini uzmoqchi bo'libdi. Yong'oqning bandi juda ham qattiq ekan, uzilmabdi. U munkib yiqilayozibdi. Bir mo'jiza ro'y beribdi-yu, dehqon yong'oq mevasiga osilib qolibdi.

Shu orada fil mingan bir kishi o'tib qolibdi.

Dehqon:

– Ey taqsir, xudo xayringni bersin, menga yordam qil! – deb yalinibdi. – Filingni bu yoqqa bur! Sen uning ustida turib, meni ko'tarib ol. Xizmating uchun o'n tanga beraman.

Filbon rozi bo'libdi. U filini qaytarib kelib, dehqonni ko'tarib olmoqchi bo'lgan ekan, fil yurib ketibdi. Filbon ham dehqonning oyog'idan ushlaganicha osilib qolibdi.



– O'tinaman sendan, yong'oqni qo'yib yuborma!
Qo'yib yubormasang, men senga o'n ming tanga
beraman, – deb baqiribdi filbon.

Bu gapni eshitib ochko'z dehqonning esi og'ib
qolibdi. „O'n ming tanga – bu o'n mingta yong'oq
degan gap. Shunaqa ekan, bittagina yong'oqni ush-
lab turib nima qilaman“, deb o'ylab yong'oqni qo'yib
yuboribdi. Har ikkovi ham dengizga tushib g'arq
bo'libdi.

Ochko'zlikning oqibati shunaqa bo'ladi!

IKKI IRMOQ

Baland tog' bag'rida paydo bo'lgan ikkita kat-
ta-kichik qo'shni buloqdan yonma-yon ikki irmoq
oqib chiqdi. Katta buloqning irmog'i kichik buloqniki-
ga qaraganda dadilroq edi. Yana „tole“ni qarang! U
oqib borayotgan yo'lda hech qanday to'siq uchrama-
di. Kichik irmoqning yo'li sermashaqqat ekan. Biroz
yurganidan keyin kattakon xarsangtoshga duch kelib
qoldi. Shunda ham u noumid bo'lmadi. Yeng shi-
marib ishga tushdi. Uning tirishqoqlik bilan o'ziga
yo'l axtarayotganini ko'rgan katta irmoq:



shagan kichik-kichik irmoqlar edik. Yo'l-yo'lakay bir-
lashib, yengilmas kuchga aylanganmiz.

Irmoq bu so'zni eshitib o'zini daryo bag'riga otdi. Uning suvi tezda daryo suvi bilan bir jon-bir tan bo'lib qoldi. U oqib keta turib katta-katta xarsanglarni bir-biriga urib, talqon qildi. Hatto, ulkan kemalarni pisand qilmay, o'z yelkasida bimalol ko'tarib jo'nadi.

Odamlar bu asov kuchni jilovladilar. Bundan u mutlaqo norozi emas. Dasht-biyobonlarga oqib, birona ham giyoh unmagani taqir yerni bog'-u bo'stonga aylantirdi. Shunda kichik irmoq o'ziga-o'zi:

– Ko'pchilik bilan birgalikda mehnat qilib yashash juda ham soz bo'lar ekan, – dedi.





KARIM CHUMOLINING TILINI BILARKAN

Bir kuni bolalarni bog'cha opalari dalaga – sayohatga olib chiqdi. Bahor emasmi, hamma yoq ko'm-ko'k libosga burkangan, bundan kishining bahri-dili ochiladi. Atrofdagi chuchmoma, gunafshalarni ayt-maysizmi, darrov bolalarni o'ziga rom qilib oldi. Ular chug'urlashganlaricha gul terishga tushib ketishdi. Karimning esa quvonchi cheksiz. Chunki u tabiatni juda sevadi. Kim bilsin, balki otasining tibbiyot o'qituvchisi bo'lgani uchundir. Balki u ham akasi singari tibbiyot sirlarini o'rganuvchi geolog bo'lmoqchidir.

Ana, u bir to'p lolalar qarshisida turib qoldi. Birdan chehrasidagi quvonch o'rnini hayrat egalladi. Lola tagida g'uj-g'uj chumoli tinim bilmay yugurishadi...

Ajoyib-da, bu chumolilar. Doim shoshganlari-shoshgan. Og'izlarida nimalar bo'lmaydi: bug'doy, cho'p, non ushoq...

Karim chumolilarga uzoq tikilib qoldi. Keyin o'rnidan lip etib turdi-yu, nariroqda lolalardan guldasta qilayotgan Nodirani chaqirdi.



- Nima deysan? – dedi Nodira istar-istamas.
- Bilasanmi, hozir yomg'ir yog'adi, – dedi Karim. Nodira osmonga qaradi. Oftob ko'zini qamashtirdi.
- Seni qara-yu, vahima qilasan-a! Oftobni qara, havo issiq.

Karim:

- Mana ko'rasan, yomg'ir yog'adi. Chumolilar o'z inlarini berkitishyapti, – dedi.

Karim to'g'ri aytgan edi. Sal o'tmay osmonni quyuq bulut qopladi. Keyin rosa jala quydi. Bolalar o'zlarini panaga olishar ekan, Nodira sekin Karimga qarab: „Qiziq. Karim chumolilar tilini bilar ekan-da“, deb qo'ydi.





TONGGI SO'Z

Ahmad tongda uyg'ondi-yu, yugurib hovliga chiqdi. Qarasa baroq mushugi unga qarab kelyapti. Boshini egib, oyoqlari ostida erkalana boshladi.

– Miyov-miyov!

Ahmad hayron bo'lib turdi-da, yo'lida davom etdi. Shunda tong shamoli g'uvullab, unga ergashdi. Daraxt yaproqlarini shitirlatib, kuylay boshladi:

– G'uv-g'uv...

Qayerdandir bir chumchuqcha uchib kelib, daraxt shoxiga qo'ndi.

So'ngra Ahmadga qarab sayray boshladi:

– Chirq-chiq-chiriq...

Ahmad qushchaning qo'shig'ini berilib tingladi-da, yana yo'lga tushdi. Qarangki, qadrdon kuchugi Qoplon inidan chiqib qoldi. U ham to'ppa-to'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. Dumini likillatib, vovulladi:

– Vov, vov, vov!

Ahmad hovuz bo'yiga keldi. Suvda g'oz va o'rdaklar suzib yurishardi. Ular qirg'oqqa yaqinroq kelib, qichqirishdi:



– G'oq-g'oq-g'oq!

– G'a-g'a-g'a!

Shu payt qo'shni uyning eshigi ochilib, Nigora ko'rindi. U jilmayib:

– Salom, Ahmad! – dedi.

– Salom, Nigora! – javob berdi Ahmad ham.

Shundagina u yo'lda uchratgan do'stlari – mushuk, shamol, Qoplon, g'oz va o'rdaklarning unga nima deganlarini tushunib oldi.





UMIDNING ULUSHI

Umid maktabdan kelsa dadasi hovli etagidagi chog'roq joyni kovlab, tuproq surayapti.

U darhol kiyimlarini ham almashtirmay ketmonni gupillatib tashlab yer chopayotgan dadasining yoniga shoshdi.

– Hormang, dada, – dedi Umid.

– E, bor bo'l, iye, iye, yechinmabsan?

Rahim tog'a yer chopishdan to'xtadi, ketmonning dastasiga suyaldi.

– Loy qilmoqchiman, guvala quyaman.

– Guvala!

– Ha! Mana sen maktabga qatnayapsan, yanagi yilga ukalaring. Shu yerga darsxona qurib bermoqchiman.

– Qoyil, yashasin! – Umid quvonganidan baqirib yubordi. Baqirgancha uyga chopib kirdi. Ust-boshini almashtirdi. Dasturxonga o'rog'liq nondan bir burdasini olib, katta tishladi-da, dadasining yoniga chopdi.



– Dada, menam guvala quyishaman, – dedi.

– Barakalla! Bir pas damingni olib tur, loy tayyor bo'lsa chaqiraman.

Umid lunjisini shishirib non chaynayotgan bo'ynari ketdi. U ko'chaga chiqib bolalar bilan ancha o'ynadi. Bir vaqt hovliga kirsada dadasi engashib olibdi. Cho'kka tushganga o'xshaydi. Hadeb loy dumalatyapti. Qovundek-qovundek guvalalar yer bag'irlab yotibdi. Dadasi yelib-yugurib guvala dumalatadi, tashiydi. Umid ham shoshganicha dadasining yoniga cho'kkaladi-da, kuzata boshladi. So'ng xuddi dadasiga o'xshab ikki panjasini loyga botirib hovuchiga sig'ganicha oldi-da, dumalatdi. Mushtdek-mushtdek guvala hosil bo'ldi, dadasi tergan guvalalarning qatoriga eltib qo'ydi.

– E, barakalla, – deb erkalatdi dadasi, – durust, bo'laveradi.

Ular bir haftagacha guvala quyishdi. Bir kuni ularnikida bir to'p odamlar paydo bo'ldi. „Devor urisharkan“ o'yladi Umid. Rostdan ham odamlarning biri loy qoridi, biri guvala tashiy boshladi, boshqasi peshma-pesh uraketdi. Devor urayotganlar Umid quygan mushtdek-mushtdek guvalalarga e'tibor be-



rishmas edi. Nuqul dadasi quyganini olib devor urishardi. Bir vaqt usta ishdan to'xtadi. Yordam berayotganlarga buyurdi:

– Mushtdek kesak bo'lsa, topinglar. Guvalalarning orasiga o'rnatamiz.

Guvala tashiyotganlar atrofga alanglashdi, birdan ularning nigohi Umid quygan guvalachalarga tushsa bo'ladimi?

– Iye, zo'r-ku, buyurtma berib ham bunaqasini topib bo'lmaydi, – deyishdi guvala tashiyotganlarning barchasi xursand bo'lishganidan.

– Umidjon quygan edi, – dedi Rahim tog'a bir chekkada iymajib turgan o'g'liga ishora qilib.

Umid guvala tashiyotganlar safiga qo'shildi. O'zi quygan guvalalarni tashiy boshladi. Uning nazarida devor tez qad rostlayotgandek, barchaning nigohi ishbilarmon Umidga qadalganday edi.

BIR JUFT SHOKOLAD

Durdona bog'chada ancha harf tanib oldi. Kim ismini aytsa, qaysi harf bilan boshlanishini xayoliga keltiradi, har safar bog'chadan keladi-da, buvisining istiqboliga chopadi.



– Ismim nima? – so'raydi buvisi, quchoqlab siylar ekan.

– B, – deydi Durdona. Hamma kuladi. – Buvi, – deydi so'ngra.

Buvisi cho'ntagidan qandmi, turshakmi, qurtmi, nabirasiga ataganini chiqaradi. Durdona sevinib oladi. „Rahmat“ deydi. Keyin buvisini gapga tutadi. „Maktabga bu yil boramanmi yo kelgusi yilimi“.

Tunov kuni Durdona bog'chadan keldi-yu, odati bo'yicha buvisining huzuriga oshiqdi. Ayvonda to'shaklar solingan, qo'shnilaridan Salima buvi bilan Xolcha xolalar davra qurib o'tirishibdi. Ular allanimalarni suhbatlashardi. Buvisi „Oppoq qizim, oy qizim“, deb erkaladi Durdonani. U buvisining quchog'idan bo'shadi-da, ayvonning tokchalariga ko'z tashladi. Kampirlar gapga tushib ketdilar. Durdona bo'lsa tokchadagi shokoladni ko'zlar edi. Pildirab borib shokoladni oldi-da, buvisiga surkandi, o'ng qo'lidagi bitta shokoladni ko'rsatdi.

– Yeyaver, yeyaver, – dedi buvisi. – Bittasini olдингmi, ikkita edi-ya, bor, unisiniyam olaqol.

Durdonaning chap qo'lida ikkinchi shokolad ham bor edi. „Ikkinchisini ham olganman“ degani uyaldi.




Kampirlar jim. Buvi bilan nabira muomalasiga zehn solib turardilar.

U buvisining quchog'idan tushdi-da, boyagi shokolad turgan tokcha tomon yugurib ketdi. Kampirlarga qaradi. Ular suhbatni uzilgan joyidan ulagan edilar.

Durdona qo'lidagi shirinliklarni darhol tokchaga bilintirmay qo'ydi-da, asta tashqariga chiqib ketdi.

U hech ham bunchalik xijolat bo'lmagan edi-da!





HUSHTAK

Salimjon o'zi yaxshi bola-yu, biroq uning bitta yomon odati bor-da. U qachon qarasang, hushtak chalgani-chalgan. Salimjon uydami, ko'chadami, ko'ngliga kelgan vaqtda ikki barmog'ini og'ziga tiqadi-da, lunjini mushtdek shishirib, hushtak chalaveradi. Hushtakboz Salimjon shu yomon odati uchun odamlardan ko'p marta dakki eshitdi. Shunday bo'lsa ham o'jarlik qilib yomon qilg'ini tashlamadi.

Bir kuni u ko'chada lunjini shishirib hushtak chalayotgan edi, kichkina nabirasini yetaklab kelayotgan mo'ysafid kishi unga nasihat qildi:

– Hoy bolakay, ko'chada hushtak chalma, odob-sizlik bo'ladi.

– Nima, ko'cha siznikimi, chalaveraman, – deb javob berdi Salimjon dag'allik bilan.

Bekatda avtobus kutib turgan yo'lovchilar Salimning qo'pol gapini eshitib, har tomondan uni koyib berishdi:

– Katta odamga shunaqa deysanmi, tarbiyasiz.

– Kimning o'g'li bu, taniysizlarmi?



– Uying qayerda, bir ta'ziringni berib qo'yaylik.

Salimjon qo'rqib ketdi. Payt poylab turib, uyi tomon qochdi. Ketimdan quvib kelishmayaptimi, deb tez-tez orqasiga qarab qo'yardi. Salimjon dam yugurib, dam yurib ketayotgan edi. Qarshisidan Shuhrat chiqib qoldi:

– Nima bo'ldi, Salimjon, qayoqqa shoshib ketyapsan?

Salimjon og'ir-og'ir nafas olib, bo'lgan voqeani gapirib berdi.

– Ketimdan uchtasi quvdi, yetkizmadim, – deb qo'shib qo'ydi gapining oxirida. Shuhrat o'rtog'ining ko'ziga tikilib turib, boshini qimirlatdi:

– Shu hushtak chalishni tashlaganingda hech kim seni orqangdan quvmasdi, uyaltirmasdi.

– Men bilan odamlarning nima ishi bor, chalave-raman, – dedi Salimjon o'jarlik bilan.

– Nega ishi bo'lmas ekan? – dedi yelkasini o'g'irib Shuhrat. – Ishi bo'ladi. Hozir odamlarning tinchligi buzilmasin, deb mashinalar ham signal bermaydi, bildingmi?

– Men katta bo'lganimda poyezd haydaydigan mashinist bo'laman, – dedi Salimjon xiyla burnini ko'tarib. – Agar yo'lda ketayotganimda paravozimning signali buzilib qolsa, hushtak bilan signal bera-



man. Ana shuning uchun hushtak chalishni mashq qilyapman, endi tushundingmi, og'ayni?

– Tartibsiz odam gudok bo'lib baqirsa ham mashinist bo'lolmaydi, – dedi Shuhrat. – Yaxshi mashinist bo'lish uchun ko'p o'qish, intizomli bo'lish kerak. Undan keyin katta odamlarning gapiga kirish kerak.

Salimjon qo'llarini yoyib, labini burdi:

– Men kimmi gapiga kirmabman, ho'?


– Hushtak chalma, yomon bo'ladi, degan odamlarning gapiga kirdingmi, qani, o'zing ayt-chi!

Salimjon o'ylanib qoldi. U biroz bo'zrayib turdi-da, o'rtog'iga qo'lini uzatdi:

– Kel, Shuhrat, qo'lingni ber, bugundan boshlab shu yomon odatni tashlayman.

Shuhrat sevinib, Salimjonning qo'lini mahkam qisdi. Endi so'zingda mahkam tur, deb tayinladi. Ammo Salimjon va'dasida turmadi. Voqea bunday bo'ldi.

Yoz kunlarining birida Salimjonning singlisi Ra'no kasal bo'lib qoldi. Uni „Tez yordam“ mashinasida kasalxonaga olib ketishdi. Uch-to'rt kun o'tgach Salimjon oyisi bilan ukasini ko'rish uchun kasalxonaga bordi. Kasalxona juda ozoda edi. Bemorlar yotgan xonaning tokchalariga chiroyli gullar qo'yilgandi. Hamma yoq tinch, pashsha ham uchmas edi.





Salimjon oyisi bilan xonaga kirgan zahoti, ukasini ko'rdi-yu, sevinganidan churillatib hushtak chalib yubordi.

– Jim! – dedi oppoq xalat kiygan hamshira achchiqlanib, – tartibsizligingni bilganimda bu yoqqa kiritmasdim.

Uxlab yotgan bemorlardan biri ko'zini ochib:

– Ha, yigitcha, oq jo'xori qo'riyapsanmi, nega hushtak chalasan? – deb unga tanbeh bergandek bo'ldi. Salimjonning oyisi uyalganidan qizarib ketdi. Shu vaqt palataga kirib kelgan vrach Salimjonni imlab yoniga chaqirdi:

– Hushtakni sen chaldingmi?

– Men, m...en, – dedi Salim yig'lamsirab.

– Tartibsiz bolaga jazo beriladi, – dedi vrach jiddiy turib. – Qani, tezda tashqariga jo'nab qol-chi!

Salimjonning ko'zida marvaridday yosh tomchilari ko'rindi.

– Endi hech hushtak chalmayman, kechira qoling, doktor amaki, – deb yalindi u.

Vrach aytganini qiladigan kishi ekan. So'zida mahkam turib oldi. U ukasi bilan bir og'iz ham gaplasholmagan Salimjonni xonadan chiqarib yubordi.



GULTUMOR VA BO'TALOQ OYBO'STON

Gultumor bilan bo'taloq Oybo'ston juda inoq. Gultumorning yuzi ra'no gulidek chiroyli. Ko'zlari qoramiqdek. Bo'taloq Oybo'ston bo'lsa malla to'n kiygan, shahlo ko'zli mitti bolakayni eslatadi. Gultumor ana shu bo'talog'iga minib olgan. Xurjunida bir mesh suv, Gultumor suvni Orolga olib ketyapti. Ilgari oyisi Orolga mayoqchi edi. U yoqqan chiroq kemalarga yo'l ko'rsatib turar edi. Endi oyisi ham, dadasi ham Oroidan ancha narida cho'ponlik qilishadi. Kecha oyisi Orolga borganini juda-juda xafa bo'lib gapirib berdi. Oyisi yoqqan mayoq shunday tuzga ko'milib yotgan emish. Kemalar ham yerga cho'kkan sahrodagi bejon fillarga o'xshar emish. Oyisining ko'ziga yosh yiltillaganini Gultumor ko'rdi.

Gultumor Orolni juda-juda qo'msaydi. Uni tushlarida ko'rib chiqadi. Tushida oy upasiga belangan Orol sohilida to'ptosh o'ynayotgan bo'ladi. Shunda oltin baliqchalar suvdan chiqib, u bilan bekinmachoq ham o'ynashadi... Ana shu Orol endi quriyapti. Nega quriyapti ekan-a? Balki undagi baliqlar hamma



suvni ichib qo'yishyaptimikan? Yo'q-yo'q, u qurimaydi. Gultumor tushida ko'rgan o'sha oltin baliqchadan iltimos qiladi. Orolimning suvini ko'p ichmanglar, quritib qo'ymanglar, deydi. Mana, o'zi ham bir mesh suv olib ketyapti.

Bo'taloq Oybo'ston lo'k-lo'k qadam tashlar, bundan Gultumor tebranib borardi. Ular uzoq yo'l yurishdi. Birdan Oybo'ston taqqa to'xtab, to'p-to'p bo'lib o'sgan sho'ralarni yeya boshladi. Gultumor unga yalina boshladi:

– Yuraqol, bo'talog'im.

Lekin o'jar Oybo'ston joyidan jilmadi. Shunda Gultumor bo'taloqdan sirg'alib tushdi. Oybo'stonning qo'ng'iroqcha osilgan bo'ynidagi arqondan tortdi.

– Yur, yuraqol, bo'talog'im!

Arqonning siltovidan o'jar Oybo'ston shataloq otib, ancha nariga ketib qoldi. Gultumor yugurib borib, bo'ynidan quchoqladi. Kun qizdirgandan qizdirar, bosgan izi laxcha cho'g' bo'lib, etikchasidan o'tib, oyoqchasini kuydirar edi. Issiq shamol yuziga betinim urilib, tomog'ini qaqratib yubordi. Gultumor juda-juda chanqadi. Shu payt uning oyog'i ostidan allanarsa o'tib qoldi. Qarasa, yumronqoziq ekan. U Gultumordan bir qadamcha narida qaqqayib turar



edi. Hansirab nafas olganidan titrab munchoqdek ko'zlarini jovdiratib, qizchaga qarab chiyilladi.

– Chanqadingmi, men ham chanqadim. Bir mesh suvimiz bor, lekin o'zim ham icha olmayman. Senga ham berolmayman. Bu suvni Orolga olib ketyapman.

Yumronqoziq lip etib g'oyib bo'ldi. Gultumorning ko'z oldi jimirlashdi. U astagina yonboshladi. Quyosh hamon olov selini quyar, issiq shamol tinmay esar edi.

Gultumor muzdek narsa peshanasiga tekkandagina ko'zini ochdi. Qarasa, mashinada yotibdi. Tepasida dadasi, oyisi, buvasi va hatto buvisi ham bor. Atrof qorong'i. Kech bo'libdi-da. Suvni Orolga quya olmadi-ya.

– Dadasi, Oybo'ston qani? Meshda suv bor edi.

Buvisi Gultumorning yuz-ko'zlarini siladi. Peshanasidan o'pdi.

– Chirog'im, voy qarog'im-ey, Oybo'stonning olib kelgan suvini Orolga quydik.

Ovulga qaytar ekanlar, dadasi lom-lim demas, ammo mehr bilan Gultumorga qarab-qarab qo'yar edi. „Voy, qo'zichog'im-ey, axir topdik-ku seni“, deb ko'z yosh qilardi. Buvisi bo'lsa: „Qarog'im-ey, o'tovim-



ning chirog'i-yey, bir mesh suving Orolga tomchi ham bo'lmaydi-ku“, – derdi kuyinib.

Ammo Gultumor bilardi, buvisi tilida hech narsa demasa ham ko'p narsalarni deydi:

„Ha, bo'taloqqinam, sening Orolga quygan suving tomchi, lekin shu tomchida olam-olam mehr bor. Agar yer yuzidagi har bir insonda ana shu tomchichalik mehr bo'lganda edi, befarqlik bo'lmaganda edi, buloqlar, daryolar, dengizlar aslo zavol ko'rmas edi. Ha, Orol ham qurimas edi“.

Bo'taloq Oybo'ston ham: „Ha, ha, xuddi shunday bo'lar edi,“ degandek mashina ketidan lo'killab borardi. Bo'ynidagi jajji kumush qo'ng'iroqcha esa, jaranglab sado berardi. Bu sado Gultumorga o'sha tushidagi oltin baliqchani eslatadi. Oltin tangachalarining to'kilgandagi kumush jarangi Oybo'ston bo'ynidagi qo'ng'iroqcha sadosiga ohangdosh edi.

YAXMALAK

Yangi yil arafasi edi. Qo'rqmas yangi yil archasini yasatib bo'ldi. Juda ko'p o'yinchoqlar bilan bezangan archasi yal-yal yonib ketdi. Yarmi qizil, yarmi sariq olmalar, noklar „ol, meni ye“, degan-





dek archa shoxidan mo'ralaydi. Qo'rqmas ularni yeb bo'lmasligini biladi, chunki shishadan yasalgan-da. Bir qo'lida hassa, bir qo'lida sovg'a qopchasini ushlagan Qorbobo ham archa atrofidan joy olgan. Oppoq po'stin kiygan Qorqiz Qo'rqmasga kulib qarab turibdi. Faqat jajji-jajji elektr lampochkalar yetishmayapti, xolos, hechqisi yo'q, bugun oyisi ishdan keyin „Bolalar dunyosi“ga kirib olib kelaman, degan. U hatto, o'rtog'i Ilg'orga: „Archamda elektr chiroqlari bor“, – deb maqtanib ham qo'ygan. Nega maqtandi-ya? Oyisi olib kelmay qolsa-chi? Yo'q, yo'q, oyisi va'da berdimi, olib keladi. Ungacha Qo'rqmas tashqarida o'ynab turmoqchi bo'ldi. Hovliga chiqib Qorbobo yasadi. Keyin yaxda uchmoqchi bo'ldi. Qorlar oq po'stindan oq, momiq, yumshoq edi. Hecham yaxda ucholmadi. Bunday qarasa, yo'lkaning qorlari odamlar qatnovidan silliqqlanib qolgan ekan. „Rosa yax bo'пти-da, hozir suv quyib yuborsam oynadek bo'ladi“, deb sevindi. Qo'rqmas oshxonaga kirib choygumda suv olib chiqdi. Yo'lkaga to'rt choygum suv sepgandan keyin yax tayyor bo'ldi. Shu payt to'r xalta ko'targan bir kishi yo'lkadan ketaturib qalqib ketdi. Qo'rqmasning qo'lidagi choygumni ko'rib, jahli chiqdi:



– Chetroqda o‘ynasang bo‘lmaydimi, bu yaxda o‘tgan-ketgan yiqiladi-ku!

Qo‘rqmasning o‘tgan-ketgan bilan nima ishi bor o‘zi? Yaxda qorong‘i tushguncha maza qilib o‘ynaydi.

Qo‘rqmasning sovuqdan yuz-qo‘llari sholg‘omdek qizarib ketganini ko‘rgan buvisi uni koyidi:


– Bor, o‘choqdan bir xokandoz kul olib chiq. Yaxga sepib, keyin uyga kir, ovqatingni ye!

Buvisi ketgach, Qo‘rqmas yaxga kul sepishni xayoliga ham keltirmadi. Qayta-qayta sirpanchiq uchib, keyin uyga kirdi. Ovqatini yeb bo‘lgach buvisi: „Yaxmalagingga kul sepib qo‘ydingmi?“ – deb so‘radi. Qo‘rqmas: „Ha, buvijon, bir xokandoz emas, ikki xokandoz sepib qo‘ydim, – dedi. Keyin yasatilgan archasining atrofini aylandi: „Elektr chiroqlarni yoqsam, archam ajoyib bo‘ladi-da. Ilg‘or ham ko‘rib rosa havasi kelardi“, – deb o‘yladi. Yaxshisi, oyisini ko‘chada kutib turadi. Bahonada yana yaxda uchib-uchib oladi. Qo‘rqmas endigina eshik tomon borgan edi, uyga oyisi kirib keldi. Avvaliga: „Qoyil“, – deb qichqirib yuborgan Qo‘rqmas oyisining rang-ro‘yini, paltosining etaklari ho‘l va qor ekanligini ko‘rib taqqa



to'xtab qoldi. Buvisi kelib, oyisining qo'lidan sumkasini oldi.

– Shundoq uyimiz oldiga kelganda sirpanib yiqilib tushsam bo'ladimi? – dedi. Oyisi paltosini yechar ekan, buvisi „yalt“ etib Qo'rqmasga qaradi. Qo'rqmas ko'zlarini olib qochdi. Buvisi ma'nodor qilib boshini chayqadi-da, hovliga chiqib ketdi. Qo'rqmas oshxonaga kirib bir xokandoz kul olganini, keyin ko'chaga chiqib ketganini derazadan ko'rib turdi. U oyisidan elektr chiroqlarini so'rashga tili bormay turgan edi, oyisining o'zi sumkasini titkilab, chiroqlarni oldi. Ammo ularni ko'rib Qo'rqmasning ko'zidan yosh chiqib ketdi. Chunki kamalak rangida tovlangan marjon-marjon lampochkalarining hammasi singan edi.





QIP-QIZIL OLMA

Tursunoy va Tohira opa-singil. Ularning hovlisi keng, o'yinchoqlariyam juda ko'p. Bugun Tursunoyning tug'ilgan kuni. Uning tug'ilgan kuniga qo'shni bolalar – Farhod, Shoira, Nigoralar ham kelishdi. Katta hovli xuddi bog'chaga aylanib ketdi. Ularning o'yin-kulgilariga Tursunoy bosh bo'ldi. Bolalar bog'chada o'rgangan qo'shiqlarini aytib berishdi.

Ertasiga Tohira yeb turgan konfetidan yana olib chiqib, o'rtoqlariga ulashdi.

– Yenglar, juda mazali!

– Shirin ekan, – dedi konfetni xash-pash deguncha yeb bo'lgan Vazira. Buni kuzatib turgan ammasi o'zicha xursand bo'lib qo'ydi.

– Yasha, qo'zichog'im! Bu fe'ling otangga tortgan. Otang ham qizg'anish nima ekanini bilmasdi...

Bugun Vazira uyidan bir qizil olmani tishlab chiqdi. Tohira ham olma yegisi kelib ketdi.

– Menam bitta tishlay!

– Ho... – dedi Vazira olmasini orqasiga yashirib.



Shu payt Tursunoy uyga kirib, bir nechta olma olib chiqdi-da, bolalarga ulashdi.

– Ol, sen nega yemayapsan? – dedi Vaziraga.

Bir chetda turgan Vazira tortinibgina olmaga qo'li uzatdi.

Shunday qilib, bolalar o'rtasida bag'rikenglik, qo'li ochiqlik boshlanib ketdi.





CHINOR

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, tog‘lar ortida kichkina qishloq bo‘lib, uning chetidagi mo‘jazgina kulbada bir chol-u kampir to‘rt nafar farzandi bilan yashar ekan. Ular farzandlarini juda yaxshi ko‘rishar ekan. Kenja o‘g‘li salgina o‘jar va qaysarroq ekan. Uyining oldida katta bir chinor bo‘lib, farzandlari shu chinorga arg‘imchoq solib, maza qilib uchishar ekan. Kunlardan bir kuni kenja o‘g‘li arg‘imchoqdan yiqilib, jarohat olibdi. Buni ko‘rgan otasi chinorni kesib tashlamoqchi bo‘lib, uydan bolta ko‘tarib chiqibdi. Shunda o‘g‘li yig‘lab, chinorni kesmaslikni iltimos qilibdi. Otasi bunga rozi bo‘libdi.

Shunday qilib chinor yana o‘sinhda davom etibdi. Kunlar o‘tib boraveribdi. Bir kuni kuchli bo‘ron bo‘lib, ketidan jala quyibdi. Qishloq vayronaga aylanib, ko‘p talafot ko‘ribdi. Lekin chol-u kampirning oilasi omon qolibdi. Qanday qilib deysizmi? O‘sha chinor ularga yordam beribdi. Katta toshqin paytida ular shu chinorning ustiga chiqib olgan ekanlar-da. Oradan bir



necha kun o'tib, ular o'z uylariga qaytishibdi. Uylarini qaytadan ta'mirlab, tinch yashay boshlabdilar. Chol-u kampir o'sha chinorni kesib tashlamaganlari uchun farzandlari ulardan minnatdor bo'lishibdi.

Kunlar ketidan kunlar o'tibdi. Chinor esa gurki-rab o'sibdi. Yozda uning soyasida qishloq ahli dam olib, hordiq chiqarar ekan. Bu daraxt butun qishloq uchun mana shunday beminnat xizmat qilar ekan. Qishloqdagilar bundan juda xursand ekanlar.





„QOVUN PISHDI“ O'YINI

Uch o'rtoq qumloqqa chiqishdi.

– Kelinglar, „qovun pishdi“ o'ynaymiz, – dedi Yoqub yenglarini shimarib.

– Bo'пти, bo'пти, – deyishdi Manzura bilan Jamila.

Yoqub marza ko'tardi. Manzura jo'yak oldi. Jamila makkadek-makkadek toshchalarni urug' qilib yerga tiqdi. Keyin: „Ko'kardi-ko'kardi“ deyishib, gugurtning cho'pidek cho'pchalarni qumga suqishdi. Paqircha bilan suv quyishdi.

– Mana, bitta qovun sobdi, – dedi Jamila jo'yakka mushtdek oq toshni qo'yib.

– Iye, yana bitta sobdi, – Manzura jo'yakka qora tosh qo'ydi.

– Yana bitta...

Shunday qilib, ular jo'yaklarga har xil toshlarni terib chiqishdi.

– Endi qovunimiz pishgandir, – dedi Yoqub.

– Bo'lmasa bitta uzib chiqib, so'yib ber. Sen katta odamsan, xo'pmi? Biz – bola. Axir bolalar qovunlarni uzishmaydi-ku, – dedi Jamila.



– Rost, biz pishganini bilmaymiz, – dedi Manzura.

Yoqub katta kishi bo'ldi: qovun qorovuli dehqon boboga o'xshab, „Obbo, do'mboqlarim-ey, obbo gir-gittonlarim-ey,“ deb qizlarga jilmayib qaradi-da, qovunpoyaga kirdi. Jo'yaklarni oralab, ikkita katta-katta qovun uzib chiqdi. Ularni shapalog'ini pichoq qilib so'ydi-da, bolalarni qovun yeyishga taklif qildi. Uchovlari „asal ekan“, „qand ekan“ deyishib, barmoqlarini og'izlariga ishqab, rosa qovunxo'rlik qilishdi.

– Qizlarim, qovunlardan yana so'yib beraymi? – deb Yoqub o'rtoqlaridan so'radi.

– Rahmat, amaki, – minnatdorchilik bildirdi Jamila.

– Kelib turinglar. O'rtoqlaringga aytinglar, qovun yeb ketishsin, xo'pmi, – tayinladi Yoqub.

– Xo'p.

– Hammaga aytamiz. Yoqub amakining qovuni pishibdi, deymiz. Ular „shira“ qo'llarini ariqchadan yuvib olishdi.




NO'XAT BILAN TUZ HAQIDA ERTAK

Qadim zamonlarda kichkinagina bir no'xatcha bo'lgan ekan. U yolg'iz o'zi yashar ekan. Doim: „Mening ham o'rtoqlarim bo'lganida edi, ular bilan maza qilib o'ynardim, hech zerikmasdim“, – deb orzu qilar ekan. No'xat bir kuni o'rnidan turib, tirnoqlari bilan yer kovlab kichkinagina chuqurcha yasabdi-da, ichiga tushib olibdi. Shamol chuqurcha ustini tuproq bilan yopib qo'yibdi. Oradan bir necha kun o'tibdi. Chuqurcha ichidan no'xat unib chiqibdi. Chiqibdi-yu, tuz bilan uchrashib qolibdi. Chunki u unib chiqqan joy sho'r yer ekan. Tuz ko'm-ko'k, jajji niholga g'a-zab bilan qarabdi-yu:

– Hey sen! Men podshohlik qilayotgan joyda qo'rqmay bosh ko'tarib chiqdingmi?! – debdi. Niholcha qattiq qo'rqib ketibdi.

U qaltirab turib, chiyildoq tovush bilan:

– Kechiring meni. Sizning bu yerda hokimlik qilishingizni men bilmabman. Agar ruxsat bersangiz, bir necha oy shu yerda yashab tursam. Keyin o'g'il-





qizlarim bilan sizga rahmatlar aytib, boshqa yerga ko'chib ketardik, – deb yolvoribdi.

Shunda tuz ko'zlarini olaytirib, g'azab bilan o'shqiribdi:

– Yo'q, bo'lmaydi! Ko'payib ketganlaringdan keyin senlarni yo'qotish qiyin bo'ladi. Pishib yetilganlaringda odamlar ko'rib qolsa bormi, darrov terib olib, pishirib yeb ko'rishadi. Mazali ekanliklaringni bilish-gach, mening yerlarimga ekaverishadi. Suv quyib meni yo'q qilishga harakat qilishadi. Tushunding-mi?! – debdi-yu, yirik-yirik tuzlaridan niholchanning yuziga sepib yuboribdi.

Sho'rlik niholcha birpasda bujmayib qolibdi. Yaxshiyamki, uning baxtiga shu payt yomg'ir yog'ibdi-yu, no'xatning bargchalariga o'rnashib olib, joniga azob berayotgan tuzni yuvib tashlabdi. Niholcha o'ziga kelib, tuzning zolimligidan qattiq xafa bo'libdi. Dushmanining yomg'irdan qo'rqib, qayoqqadir yashirinib olganligidan foydalanib, tuz yo'q yerni izlab, tez-tez yurib ketibdi. Yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxiri tuzi yo'q yerni topibdi. Bu saxiy yer niholchani xursand bo'lib, o'z bag'riga olibdi...

Oradan juda ko'p yillar o'tibdi. Hozirgi tuzimiz qadimgi bobosining qilgan yomonligi uchun no'xatdan



ko'p marta kechirim so'rabdi. Ammo no'xat ham qaysarlik qilib, hech tuzni kechirmabdi. Bundan tuzning ham juda jahli chiqibdi. No'xatdan ovqat tayyorlanayotganda unga tez tuz solinsa, u no'xat ichidagi suvlarni so'rib olarkan-da, uni burishtirib, qotirib qo'yarkan. Shuning uchun to no'xat pishib, ustidagi yupqa po'stinini yechmaguncha, qozonga tuz solib bo'lmas ekan.

Shunday qilib, no'xat po'stinini yechib bo'lgach, qaytib kiyolmay, tuz bilan qozonda ahil yashashga majbur bo'lib qolgan ekan.

MAYINA NEGA BO'LDI MAYNA?

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul hali yo'q ekan. U paytlarda egnidagi qora baxmal ko'ylagini hech yechmaydigan, ko'zlarining atrofi sapsariq, tumshuqchasi oltinrang bir qushning dovrug'i olamga ketgan ekan. Uning yoqimli, mayin ovoziga hamma maftun ekan. U sayrab aytgan qo'shiqlarini atrofdagi hamma qushlar miriqib tinglar va olamda faqat yaxshi, go'zal narsalarning bo'lishini orzu qilishar ekan. Kuy tugagach, qushlar bir-birlariga qarab:



– Qanday mayin, qanday yoqimli, jozibali kuy-a?! – deb qo‘yishar ekan.

Qushlar uni yaxshi ko‘rib, ovozigga mos Mayina, deb ism qo‘yishibdi. Kunlardan bir kun Zag‘izg‘on, Chittak, Qaldirg‘och va yana bir qancha qushlar maslahatlashib, Mayinaning uyiga mehmonga bormoqchi bo‘lishibdi. Tush paytida hammalari sovg‘a – biri ninachi, ikkinchisi chigirtka, uchinchisi kapalak, boshqasi semiz qurtni tumshuqlarida osiltirib, yo‘lga ravona bo‘lishibdi. Mayinaning uyiga yetib kelishibdi. Eshigini uzoq taqillatishibdi. Nihoyat, Mayina eshikni ochibdi. Uning ko‘zlari uyqudan qizarib ketgan ekan. Mehmonlarni ko‘rib, biroz xijolat bo‘libdi. Ularni ichkariga taklif qilibdi. Uychaga kirgan qushlar hayron bo‘lib qolishibdi. Chunki xona nihoyatda iflos ekan. Mayina anchadan beri o‘z husniga, ovozigga mahliyo bo‘lib, uyini yig‘ishtirmagan, hatto axlatlarini ham chiqarib tashlamagan ekan. Mayinaning bunday yashashi mehmonlarning g‘ashini keltiribdi. Chunki ular ozodalikka o‘rganishgan, uylarini har doim supurib-sidirib qo‘yishar ekan-da.

– Voy-bo‘y, Mayinaxon, uyingizni yig‘ishtirib olsangiz bo‘lmaydimi? – debdi aftini bujmaytirib Zag‘izg‘on.



– Idishlaringiz muncha iflos, yuvib bera qolaylik. Kirligim bilinmasin, hech kim mendan kulmasin, deb qora baxmaldan ko'ylak tiktirib olgan ekansiz-da?! – debdi vijillab Qaldirg'och.

Qisqasi, mehmon qushlar uni mazax qilishibdi, ustidan rosa kulishibdi. Mayina qattiq xijolat bo'libdi. Shunda kichkinagina Chittak o'rtaga chiqib:

– Biz sizni ko'rib, ovozingizga maftun bo'lib, erkalab, „Mayinajon“ deb aytardik. Siz Mayina emas, hammaga mayna bo'ladigan qush ekansiz-ku, – debdi. Shunda hamma qushlar, „mayna, mayna“ deb chug'urlashib ketishibdi. Zag'izg'on:

– Yuringlar, ketdik. Maynaning uyida nima qilamiz, – debdi-yu, pir etib uchib ketibdi. Boshqa qushlar ham uning orqasidan uchib ketishibdi.

Mayina yolg'iz qolgach, uzoq o'ylabdi. U mayna bo'lishni xohlamabdi. „Qushlar uyimning faqat iflosligini ko'rishdi, beqiyos go'zal husnim, shirali ovozim borligini unutishdi. Hozir chiqib bir sayrayki, hammaning og'zi ochilib, o'zlari mayna bo'lib qolishsin“, – debdi Mayina o'ziga-o'zi. U bog'ga chiqib, qizil gulning eng baland shoxiga qo'nib, butun qobiliyatini ishga solib, chunonam sayrabdiki, o'z



nazarida hech qachon bunchalar jo‘shib, jon-jahdi bilan sayramagan ekan.

Sayrab bo‘lgach, atrofiga qarasa, hech kim yo‘q. Qushlar inlaridan boshlarini chiqarib, baravariga: „Mayna, Mayna, iflos qush – Mayna“, – deb chug‘ur-lashibdi.

Shunday qilib, bu qushning „Mayina“ nomi asta-sekin unutilib, „Mayna“ bo‘lib qolibdi.

Mayna isnodga chidolmay, qushlarning oldidan ketib qolibdi. Endi u odamlarga o‘zini yaqin tutadigan, ularning bog‘laridagi, polizlaridagi qurt-qumursqalar-ni yeb, kun kechiradigan bo‘libdi. Sayragisi kelsa, yana jo‘shib-jo‘shib sayrar ekan. Ammo diqqat bilan tinglagan kishi uning qo‘shig‘ida qandaydir mung, armon borligini his qilar ekan.



ENAM, MEN VA BEDANA

Dadam bilan yantoq chopishga borganimizda bedana ushlab kelgandik. Bedanani qanday ushlaganimizni eslasak, haliyam xafa bo'lib ketaman. Dadam yantoqni juda tez chopadilar. U kishi bir dasta chopganlarida men atigi bir tutamgina chopaman. Dadam tomiri bilan yaxshilab chopsalar, mening o'rog'im yantoqning beliga tushadi.

Birdan shitirlagan ovoz eshitildi. Dadam ostida bedana pusib yotgan yantoqqa o'roq solgan ekanlar. O'roq uning qanotiga tegibdi. U ancha joyga yo'rg'alab bordi. Keyin to'xtab qoldi. Men darhol unga yetib oldim. Uning yaralangan qanoti yozilib yotar, ko'zlarini milt-milt qilib menga qarab turardi.

Dadam uning yaralangan qanotiga issiq tuproq sepdilar, „karaxt bo'lib, uxlab qolgan ekan-da“ dedilar uning qanotlarini to'g'rilab qo'yarkanlar. Dadamning aytishlaricha, biz ancha vaqt gaplashmay, bir maromda yantoq o'raverganimizga u uxlab qolgan emish. Bo'lmasa uchib ketarkan. Men bedana ush-

lashni orzu qilib yurardim. Bir tomondan quvondim ham, lekin uni yarador qilib ushlab mening ham, dadamning ham ko'nglini xijil qildi. Shundan keyin men deyarli yantoq o'rmadim. Dadam ham yolchitib chopmadilar...

...Bedana tuzala boshladi. Dadam qishlog'imizning podasini boqadigan Ismoil bobodan bitta eski to'rqovoq olib kelib berdilar. Dadamning aytishicha, bu to'rqovoq muqaddas emish. Qandaydir bir avliyoning qabri tepasida o'sgan chinorning sinib tushgan shoxidan qilingan emish. Dadam bu gapni enamga aytgan edilar. Enam to'rqovoqni o'pib, qosh-ko'zlariga surdilar. Bu menga erish tuyulsa-da, baribir men enamni yaxshi ko'raman. Enam ham meni yaxshi ko'radilar. Dadam bilan tog'ga ketayotganimizda ham, tog'dan qaytib kelganimizda ham meni peshanamdandan o'pganlarida ko'zlaridan yosh chiqib ketadi. Men enamning haqiqatan meni yaxshi ko'rishlarini shundan bilaman. U kishiga shunday katta yaxshiliklar qilay deyman-u, ammo hali yoshman-da.

Enam, ko'pincha, „Doniyor go'rimga tuproq tortadigan bo'lganida o'lsam o'lganimga roziman“, derdilar. Bu gap avval unchalik qiziq va ahamiyatsizdek



tuyulardi menga. Enam turolmasdan kasal bo'lib qolganlaridan keyin bu so'z qulog'im ostida takrorlanaverdi. Shuncha qilsam ham uni miyadan chiqarib tashlay olmadim.

...Hammamiz enamning boshlarida o'tirardik. Dadam bilan ayam bizlarga eshittirmasdan allanimalar haqida gaplashishar, qandaydir matolarning hisob-kitobini qilishardi.

– Doniyorjon, bedanangiz qani? – dedilar enam.

Biz hayron bo'lib qoldik. Enam ancha vaqtdan beri gapirolmay yotgan edilar. Undan tashqari, gapirganlarida ham nega bedanani so'radilar? Menga ham „siz“lab gapirdilar.

– Shu yerda, enajon, shu yerda! – dedim shoshib, gapimga ishonmayotgandek to'rqovoqni olib kelgani chopdim.

– Mana, enajon, bedana, mana, – dedim to'rqovoqni ko'zlariga yaqin olib borib.

Enam to'rqovoqni siypalay boshladilar, lablarini tekkizdilar...

– Doniyorjon, bedanangizni qo'yvoring, yuraklari siqilib ketgandir, bechoraning, – dedilar zo'rg'a.

Men o'ylamay-netmay „Xo'p, enajon“ dedim. To'rqovoqni ko'tarib tashqariga chiqdim. Og'zini ochib



biroz qarab turdim. Bedana indamay turardi. Uch-gisi kelmayotgandir, deb o'yladim. Uchirib yuborish-ga ham hech ko'nglim unamasdi. Bedanamni somonxonaga olib kirib, tezak paqirning ostiga qamab qo'ydim. Paqirning ustiga egar-jabduqlarni bostirdim.

– Mana, uchirib yubordim, enajon, – dedim bo'sh to'rqovoqni ko'rsatib.

– Baland uchib ketgandir-a! – dedilar enam zo'rg'a.

– Ha! – dedim ovozim qaltirab.

Enam shundan keyin gapirmadilar. Dadam hammamizni chiqarib yubordilar. Enamning jonlari uzildi. Hammamiz yig'ladik. Ayniqsa, men ko'p yig'ladim. Uyimizdan dadam bilan men qabr boshiga bordik. Mendan kichik ukam ham boraman degandi, opam ushlab qoldi. Men dadamning orqalarida turardim. Odamlar birin-ketin qabrga tuproq tashlay boshladilar. Qabr to'ppayib borardi. „Ma“, dedilar dadam ketmonni menga tutib. Mening qo'llarim qaltirardi. Qulog'imga enamning meni azobga soluvchi so'zlari eshitilganday bo'ldi. Qo'llarim battar qaltiray boshladi. Nega men tez katta bo'ldim-a? Katta bo'lmay turganimda, enam o'lmasdilar. Keyin bedanam esimga



keldi. Enamni aldaganimdan butun tanam achishib ketdi. Qo'limdan ketmonni kim olgani esimda yo'q. Bedanamni uchirib yuborishim kerak. Xayolimda shu fikr charx urardi...

Uyga hammadan burun keldim. Somonxonaga kirdim. Bedanamning mayda-mayda patlari havoda muallaq uchib yurardi... Men bedanamning qotili edim...





DONO QIZ

Dam olish kuni Umida Dildoralarnikida o'ynab yurgan edi, Dildoraning buvisi mehmonga kelib qoldi. Dildora eshikdan kirib kelayotgan buvisini ko'rib:

– Buvi, buvijon, menga nima olib keldingiz? – deb unga yopishib oldi.

Charchab kelgan buvisi cho'ntagidan Dildoraga ikkita yong'oq chiqarib berganida Dildora:

– Vuy, nima qilaman ikkita yong'oqni? Menga ko'proq berasiz, – deb xarxasha qila boshladi.

Umida esa buvining oldiga asta borib, salom berdi-da, qo'lidagi tugunchani oldi.

Buvisi Umidaga ham ikkita yong'oq bergan edi:

– Rahmat, – deb bittasini ko'zlarini olaytirib norozi bo'lib turgan Dildoraga berdi.

Buvisi uyga kirdi. Uning ketidan Dildora bilan Umida ham kirishdi. Qarashsa, Nigora yig'layapdi. Dildora singlisini ovutish o'rniga, tilini chiqarib, masxara qilgandi, u battar yig'ladi. Umida esa qo'lidagi yong'oqni berib, Nigorani ovutdi. Bir mahal buvi



hovliga chiqib qo'lini yuvayotgan edi, Umida yugurib borib, unga sochiq tutdi.

Shu payt Dildoraning oyisi dasturxon yozdi. Buvisi Umidani ham choyga taklif qildi.

– Kel, dono qizim, kel, choy ich!

– Voy, uning ismi Dono emas, Umida, – dedi bijirlab Dildora.

– Yo'q, uni Dono deb chaqirish kerak, – dedi buvisi.

– Sening isming Umida, a? O'zing ayt buvimlarga, – dedi yana Dildora.

Bir chekkada uyalinqirab turgan Umida sekingina „himm“ deb qo'ydi.

– Ana, eshitdingizmi? Ismi Umida.

Buvi Dildoradan xafa bo'lganini bildirmasdan sekin choydan xo'plab:

– U men uchun ham Umida, ham dono qizdir, – deb qo'ydi.

KAMTARGA KAMOL

Qadim-qadim zamonda bir tog' etagida bir tup olma, olcha, anor, shaftoli va bir tup gilos o'sar ekan. Ular har kuni bir-birlari bilan suhbatlashar,



juda ahil ekanlar. Lekin... Kunlardan bir kun olma do'stlariga qarab so'z boshlabdi:

– Hoy, o'rtoqlar, men endi eng oldin gullayman. Chunki men eng ko'rkam va mevali, mazali.

– To'g'ri, – debdi olcha, – mazalilikka mazalisan, ammo ichingda bironta ham danak yo'q. Men eng oldin gullashim kerak...

– Hoy-hoy, – deya ayyuhannos solishibdi hali olcha gapini tugatmasdanoq anor bilan shaftoli, – biz ikkalamiz eng oldin gullashimiz kerak, hozir indamasak sizlar bizni unutib yuboryapsizlar-a?

Bu orada to'rtta daraxt bir-biri bilan janjallasha boshlabdi. Janjal jangga aylanibdi. Lekin gilos ularga qo'shilmabdi. U jimgina turaveribdi. To'rtala daraxt bir-biri bilan urishishib, uni eslashmabdi ham.

Bog'bon kelib, bo'lgan voqeani payqabdi va debdi:

– Eng birinchi gilos gullashi kerak, chunki u odobli, mehnatsevar, kamtar, tinch yashashni sevuvchi mevadir.

O'shandan buyon bahorda eng birinchi bo'lib gilos gullar ekan, eng avval pishib odamlar dasturxoniga qo'yilarkan.



MO'JIZAVIY KO'L

Bir afsona ekan, bir rostmona ekan, orzuga ayb, ajalga davo yo'q ekan, ularga barcha duchor ekan, taqdir oldida nochor ekan. Baland tog' ustida mo'jizaviy ko'l bo'lib, kimki shu ko'lning suvidan ichsa, o'zi istagan qiyofaga kirar ekan, orzusiga yetar ekan.

Bu xabarni eshitgan bir talay jonzotlar ko'lni axtarib topishgan ekan, xohish-istaklari bo'yicha ish tutib, mushkul ahvolga tushishgan, so'ng pushaymon bo'lishgan ekan.

Quyong. Bir umr hadik va qo'rquv ostida yashash joniga tekkan Quyong bu xabarni eshinishi hamonoq ko'lga yetib boribdi. Quyong umri bo'yi Arslonga havasi kelib, unga o'xshashni orzu qilgan ekan-u, ammo iloji bo'lmagan ekan, mo'jizaviy ko'lning suvidan yuqoqib simiribdi. Ne ajabki, u bir zumda Arslon qiyofasiga kiribdi. Bunga ishonqiramay, gavdasiga ko'z qiri bilan boqqan ekan o'z haybatidan o'zi seskanib ketibdi. Orzusi ushalganidan behad mamnun bo'libdi. Endi u o'rmondagi eng zo'r va yirtqich hayvon.

Shunday shirin xayollar og'ushida kelayotgan ekan, tuyqusdan oldidan Tulki chiqib qolibdi. Uni





ko'rgan Quyoning yuragi yorila yozibdi. Yashirinishga joy topa olmay, orqa oldiga qaramay shataloq otib qochvoribdi. Bundan Tulki ko'zlariga ishonmay, o'zidan qo'rqib qochgan Arslonni umrida birinchi bor ko'rib, ortidan hayrati oshib, ajablanib qarab qolibdi.

Bo'ri. Ko'l daragini eshitgan Bo'ri ko'pdan buyon orzu qilib yurgan niyatini amalga oshirmoqchi bo'lib, qo'y qiyofasiga kirishni ko'ngliga tugibdi. Chunki qo'y suvratida bo'lsa, uning Bo'riligini qo'ylar payqamaydi. Shunda ularni quvlab oyog'ini og'ritib ham yurmaydi. Yemishi doimo yonida bo'ladi. Bo'ri ko'l tomon yo'rtib ketibdi. Ko'lning mo'jizaviy suvidan to'yib sipqoribdi-yu qo'yga aylanib qolibdi. Orzusi ushalganidan xursand bo'lgan Bo'ri to'g'ri qo'y podasining ichiga kirib boribdi. Qo'ylar undan zarracha ham hayiqishmabdi, hatto parvo ham qilishmabdi. Bo'ri bundan foydalanib, chekkaroqda o'tlab yurgan semizgina Qo'chqorni yemoqchi bo'lib, hamla qilgan ekan, tishlari qo'chqorning badaniga mutlaqo o'tmabdi. Qo'chqor bu begona Qo'yning nojo'ya harakatidan jahli chiqib, bir suzgan ekan, uning nafari chiqmay qolibdi...



Yo'lbars. O'z hayotidan Yo'lbars ham qoniqmas ekan. Atrofida unga yemish bo'ladigan jonivorlar ko'pligiga qaramay, doim yarim och yurarkan. Ularni qanchalik ko'p ov qilmasin, shunchalik ishtahasi karnay bo'laverar ekan. Shu boisdan uning Sichqonga havasi kelarkan: „O'zi kichkinagina, ozgina luqma bilan ham qorni to'yadi. Ochlik nimaligini bilmay, taralla-bedod qilib yashasa bo'ladi“, – deb o'ylarkan.

U mo'jizaviy ko'l xabarini topishi hamonoq, sichqon qiyofasiga kirishga qaror qilibdi. Chindan ham Sichqon suvratida rohat-u farog'atda yashay boshlabdi. Qorni to'q, kichkinagina inchasiga kirib olib, istaganicha hordiq chiqarar ekan. Bir kuni o'rmonda sayr qilib yursa, Mushukka ro'para kelib qolibdi. U darhol Mushukdan qochish o'rniga jazavasi qo'zib, „Senmisan hali, Yo'lbarslar ajdodidanman, deb da'vo qiladigan!“ – deya do'q urib uning tumshug'iga osila ketibdi. Bunaqangi dovyurak „Sichqon“ni umrida ko'rmagan Mushuk avvaliga taajjublaniydi, so'ng: „Ochligimda duch kelishing ayni muddao bo'ldi“, – deb uni tappa bosib yeb qo'yibdi.

Qissadan hissa shuki, suvratni o'zgartirgan bilan siyratni o'zgartirib bo'lmas ekan.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Yangi oʻrtoq.....	5
Hovlidagi maydoncha	10
Qaldirgʻoch bilan mugʻambir llon.....	21
Kichik dehqon	23
Koʻylakni kir qilmayman	25
Qaysar chumchuq.....	27
Ona mehri.....	29
Mehr	36
Hozir, buvijon!	40
Yongʻoqjon.....	42
Suhbat	47
Yoʻlda.....	49
Odobli-yu aqlli bolalar	51
Oq laylaklar.....	55
Aziz, Aziz, yana Aziz.....	62
Tuyani shamol uchirdi.....	67
Qoʻriqchi	68
Ninachi.....	69
Xoʻrozqand	72

Iz.....	75
May yomg'iri.....	77
Soy suvi.....	78
Dum-dumaloq Qo'ng'iz.....	82
Mushuk bilan Chumoli.....	84
Ochko'zlikning oqibati.....	88
Ikki irmoq.....	91
Karim chumolining tilini bilarkan.....	95
Tonggi so'z.....	97
Umidning ulushi.....	99
Bir juft shokolad.....	101
Hushtak.....	104
Gultumor va bo'taloq Oybo'ston.....	109
Yaxmalak.....	112
Qip-qizil olma.....	117
Chinor.....	119
„Qovun pishdi“ o'yini.....	121
No'xat bilan tuz haqida ertak.....	123
Mayina nega bo'ldi mayna?.....	126
Enam, men va bedana.....	130
Dono qiz.....	135
Kamtarga kamol.....	136
Mo'jizaviy ko'l.....	138

83.8(50')

X 98

Xo'jaahmedov, S.

Do'stim mening – kitobim [Matn]: 2-kitob/
S.Xo'jaahmedov.–Toshkent: „Ensiklopediya“ nashriyoti
MCHJ, 2022.–144 b.

ISBN 978-9943-07-757-7

UO'K: 821.512.133-93

KBK: 83.8(50')

Tuzuvchi:

Sunnat XO'JAAHMEDOV

Rassom:

Shohrux TOSHTURDIYEV

DO'STIM MENING – KITOBIM

2

(Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun hikoyalar)

„Ensiklopediya“ nashriyoti

Toshkent–2022

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*

Badiiy muharrirlar: *Shohrux Toshturdiyev,*

Shahnoza Sobirova

Kompyuterda sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 20.09.2022.

Bichimi 70×90¹/₁₆. Kegli 16 shponli. „AG_Helvetica“ garn.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'oz. Shartli b.t. 9,0.

Hisob-nashriyot t. 9,0. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 724-22.

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,

Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

„Credo Print“ MCHJ kitob fabrikasida chop etildi

Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR UCHUN HIKOYALAR


ENSIKLOPEDIYA
NASHRIYOTI

Toshkent shahar,
Chilonzor tumani,
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.

6+

ISBN 978-9943-07-757-7



9 789943 077577